

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

GULOMOV ILXOMJON KOMILJONOVICH

**MAVZU: XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida mavjud ijtimoiy-siyosiy
xarakatlarda davlat boshqaruvi g‘oyasi.**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: t.f.n. dots. M.M.Xaydarov

TOSHKENT - 2013

Kirish		2-8
I BOB	Rossiyadagi fevral inqilobi va Turkistonda siyosiy jarayonlarning jadallashuvi	9-28
1.1.	1917 – yil Fevral burjua demokratik inqilobidan keyingi Turkistondagi siyosiy ahvol	9-18
1.2.	O'lkada milliy – siyosiy tashkilotlarning yuzaga kelishi	19-28
II BOB	O'lkada siyosiy tashkilotlarning faollashuvi, ularda davlatchilik g'oyalarining ilgari surilishi	29-57
2.1.	O'lkada mahalliy-siyosiy xarakatlarning maromnomalari. “Sho'roi Islomiya”, “Sho'roi Ulamo”	29-38
2.2.	Turkiston muxtoriyati – milliy demokratik xarakatlarning ifodasi	39-49
2.3.	Milliy matbuotda milliy-demokratik davlatchilikni tuzish va uni mustahkamlash masalalarining yoritilishi	50-57
	Xulosa	58-61
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	62-66
	Ilova	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, xalqimiz va mamlakatimizning ko'xna va boy tarixini chuqur o'rganish hamda haqqoniy tahlil qilish muxim masala bo'ldi va bo'lib qolmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan maruzasida Turkistonda o'rnatilgan sovet hokimiyatining mohiyatini ochib ko'rsatish bilan birgalikda, bugungi kunda yurtimizda amalgam oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib, ularni quyidagicha izoxlagan edi: "Ma'lumki, inqiloblar odatda hamma davrlarda barcha narsani joxillik bilan vayron qilish vositasi va quroli bo'lib kelgan... Biz hokimiyatning uchinchi tarmog'i bo'lgan sud-huquq tizimini islox qilish va yanada liberallashtirishga aloxida axamiyat berami"¹.

Davlatimiz raxbari Islom Karimovning Respublika tarixchilari bilan 1998-yil 26-iyundagi uchrashuvida² so'zlagan nutqida, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan, shundan keyingi chiqishlarida tarix fanining manaviy salohiyatini safarbar etish, tarixiy haqiqatni tiklash soxasidagi harakalarning keng dasturi, tanlangan mustaqillik va taraqqiyot yo'lidan borib, mo'ljallangan maqsadlarga erishishning mustahkam ilmiy asosi belgilab berildi. Ularda jamiyat taraqqiyotining real qonuniyatlarini chuqur o'rganish zarurligi, milliy tarixdagi yuksalish va tanglikdavrlarini yangicha metadologik nuqtai nazardan taxlil qilish, sovet mustamlakachi tuzumining ko'rsatgan buzg'unchilik ta'siriga doir omillarni aniqlash, avvalgi mafkuraviy andoza va eskicha tafakkur ko'rinishlarining takrorlanishiga barham berish yo'llarini belgilash, jamiyatning ma'naviy-ahloqiy takomilga erishuvida tarix fanining ta'sirini kuchaytirish zarurligi qayd qilingan.

¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2005. 183-bet.

² Karimov I.A. Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent: "O'zbekiston", 1998.

Jumladan Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek, “biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, halqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur”.³ Chunki, halqimiz ma’naviyatining yuksalishida o’rganilayotgan sovet davri tarixini hozirgi mustaqillik davri bilan qiyoslash istiqbolimizni yanada munosib qadrlash imkonini beradi⁴. Bugun esa, haqqoniy tarixni ilmiy asosda holis o’rganish lozim.

Ana shu ijtimoiy muhim vazifalardan kelib chiqib, vatanimiz tarixining og’ir mustamlakachilik o’tmishi bilan bog’liq bo’lgan ayanchli sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baxo berish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma’lumki XX asrning birinchi choragida, yani 1917-yilning boshlari fevral burjua-demokratik inqilobining g’alaba qozonishi hamda Sovet davlatining barpo etilishi davri hisoblanadi. Bu davr o’lkamiz tarixida muxim ahamiyat kasb etgan davr hisoblanadi, chunki Chorizm iskanjasida ezilib yotgan o’lka halqlari qalbida mustaqillik, ozodlik, hurlik uchqunlari porlay boshladi. Ko’p asrlik mustamlakachilik, qaramlik, zulm va kamsitishlar girdobida bo’lib kelgan ajdodlarimiz urf-odatlarini, an’analari, madaniyati cheklovlariga tanazzulga yuz tutgan edi. 1917-yil Rossiyada ro’y bergan fevral voqealaridan so’ng imperiyaning chekka o’lkalarida, hususan, Turkistonda ham tarixiy o’zgarishlar yuz bera boshladi. Bu jarayonlarda Turkiston halqlarining ilg’or ziyolilari, yani jadidlar yuzaga kelgan vaziyatda halqni ozodlik, mustaqillik sari yetaklashda avvalo halqni ma’rifat orqali ko’zini ochish harakatida bo’lgan bo’lsalar, fevral voqealaridan so’ng ziyolilar siyosiy maqsadlar yo’lida tashkilotlar va jamiyatlarga uyushib harakat qilish maqsadga muvofiq deb bildilar. 1917-yildan boshlab Turkistonda ozodlik g’oyalari singdirilgan siyosiy tashkilotlar yuzaga kela boshladi. Jumladan, “Sho’roi Islomiya”, “Turon”, “Ulamo”, “Ittifoq”, “Turk adam Markaziyat” kabi o’nlab milliy tashkilotlar

³ Karimov I.A. O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild. -Toshkent: O’zbekiston, 1999. 149-bet.

⁴ Qarang: Shamsutdinov R. O’zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlarini. -Toshkent: Sharq. 2001. 4-bet.

tuzildi. Tashkil qilingan siyosiy tashkilotlar o'zlarining dasturlarida boshqaruv masalasi, idora usuli, oziq-ovqat masalasi, ta'lim-tarbiya soxasi, din masalasi, ilm-fan, maorif sohalarini tubdan isloh qilishni bir so'z bilan aytganda, mustaqillikni qo'lga kiritishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edi.

Tadqiqotchi ushbu jihatlarni hisobga olgan holda mazkur mavzuni bitiruv malakaviy ishining obyekt sifatida tanladi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. 1917-yil va 1918-yilning boshlarini o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot ishi 1917-yildan 1918-yilga qadar Turkistonda milliy harakatlar va milliy matbuot faoliyati, matbuot materiallari hamda arxiv hujjatlarida davlat boshqaruvi masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganadi. Chunki aynan shu davr hozirgi kunda mamlakatimizdagi siyosiy partiyalarning faoliyati, tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mavzuga tegishli tarixiy adabiyotlarni ikki davrga ajratish mumkin: ***birinchisi*** – XX asrning 20-80 yillarida yaratilgan adabiyotlar, ***ikkinchisi*** – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin nashr etilgan tadqiqotlar.

XX asrning 80-yillarigacha nashr etilgan bir qator kitoblarda⁵ Turkistondagi ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi ma'lumotlar keltirilgan.

Qayta qurish davriga kelganda tarixga munosabat o'zgardi, tarixiy hotira uyg'ondi. Biroq qayta qurish yillarida O'zbekistonda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda ham cheklanganlik va o'z fikrini ochiq ayta olmaslik kabi jihatlar boshqa respublikalardagi ijtimoiy soha mutahassislari asarlariga nisbatan ko'proq kuzatiladi.

⁵ Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). -М., 1921; Муравейский С. Из истории Коммунистической партии Туркестана. -Т., 1922; Манелис Л. Из истории государственно-правовых взаимоотношений Туркестанской АССР и РСФСР. -Т., 1966; Нуруллин Р. Советы Туркестанской АССР в период гражданской войны. -Т., 1965; Унинг узи. Борьба Компартии Туркестана за осуществление политики «военного коммунизма». -Т.,1975; Бойжонов Р. Туркистонда Октябрь революцияси историографиясига доир (1917-1967 йй). -Т., 1975.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng tarixchilar tomonidan yangicha metodologik uslubda yozilgan ilmiy monografiyalar⁶, darsliklar⁷, asarlar⁸ bilan bir qatorda Q.Rajabov, N.Norjigitova, A.Xudoyqulov, J.Toshqulov, F.Nabiyev, S.A'zamxo'jayev, R.Abdullayev, M.Xaydarov, D.Ziyoyeva, G.Rustamova⁹ va boshqalarning dissertatsion tadqiqotlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Q.Rajabovning nomzodlik dissertatsiyasida katta hajmdagi arxiv materiallari va horijdagi nashr etilgan adabiyotlar tahlili asosida Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining tarixi yoritib beriladi. U o'zining doktorlik dissertatsiyasida esa Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi olib borilgan qurolli harakat tarixini batafsil ko'rsatgan.

N.Norjigitova Turkistondagi "bosmachilik" harakati sovet davri tarixshunosligini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qiladi.

S.A'zamxo'jayev o'zining doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasida Turkiston Muxtoriyati tarixini o'rganadi. Tarixchi olim Turkiston Muxtoriyati tashkil topishida muxim ro'l o'ynagan siyosiy tashkilotlarning faoliyatini ham

⁶ Голованов А. Крестьянство Узбекистана: Эволюция социального положения. 1917-1937 гг. -Т., 1992; Аъзамхужаев С. Туркистон Мухторияти. -Тошкент: Маънавият, 2000.

⁷ Ражапова Р.Ё ва б. Узбекистон тарихи (1917-1993 йй.). 9-синф учун дарслик. -Т., 1994; Раджапова Р.Я. и др. История Узбекистана (1917-1993 гг.). Учебник для 9-класса. -Т., 1995; Алимова Д.А. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй.). 10-синф учун дарслик. -Т., 2000; Ўзбекистон тарихи (Олий Ўқув юртларининг номутахассис факультетлари талабалари учун). Р.Х.Муртазаеванинг умумий тахрири остида. -Т., 2003.

⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т., 2000. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Науч. Ред. Р.Я.Раджапова. -Тошкент: Шарк, 2000; Ражабов Қ., Хайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 йй.). -Тошкент: Университет, 2002; Хайдаров М. Ўзбекистон совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти. -Тошкент: АБУ МАТБУОТ КОНСАЛТ, 2012.

⁹ Раджабов Қ. Истиклолчилик ҳаракати в Ферганской долине: сущность и основные этапы развития (1918-1924 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1995; Унинг ўзи. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т., 2005; Норжигитова Н. Историография "Басмаческого движения" в Туркестане (советский период). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1995; Худойқўлов А. Просветительская деятельность джаидов Туркестана (конец XIX-начало XX вв). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1995; Ташкулов Дж. Основные направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX-первой четверти XX вв. Автореф. дисс. докт. юрид. наук. -Т., 1995; Набиев Ф. Проблемы и противоречие социальной политики в Туркестане (1917-1927 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т., 1995; Агзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1998; Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т., 1998; Хайдаров М. Централизованная политика Советской власти в Туркестане и ее последствия (1917-1924 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1998; Зияева Д. Национально-освободительное движение в Туркестане в историографии XX века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения «истиклолчилик» 1918-1924 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т., 1999; Рустамова Г. Колониальная сущность царской и большевистской власти в Туркестане (1867-1924 гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1999.

ilmiy jihatdan o'rganib yoritib beradi. Bundan tashqari o'sha Turkiston halqlarining ozodlik va mustaqillik uchun kurashining mevasi sifatida tashkil topgan Turkiston Muxtoriyati tarixi, davlatchilik tajribasini O'zbekiston mustaqillikka erishgan bir paytdagina butun haqiqati, tarixiy ahamiyatini batafsil yoritib bergan.

R.Abdullayev Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlarning shakllanishi, bu siyosiy tashkilotlarning yo'nalishlari va faoliyatini o'zining doktorlik dissertatsiyasida yoritib berdi.

M.Xaydarov o'zining nomzodlik dissertatsion tadqiqotida mazkur davrdagi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni va arxiv fondlaridagi o'rganilmagan manbalar va ularning tanqidiy tahlili asosida Turkiston va O'zbekistondagi sovet hokimiyatining markazlashtirish siyosati va uning oqibatlarini yoritgan. Muallif o'zining ilmiy monografiyasida O'zbekistonda sovet davlatining boshqaruv tizimi, uning shakllanishi, bosqichlari va mohiyati ko'rsatib berilgan. Muallif ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va tarixiy tadqiqotlar asosida bu mavzuni atroflicha yoritgan.

A.Mingnorov o'zining nomzodlik dissertatsion ilmiy izlanishida Turkistondagi milliy-siyosiy tashkilotlar tarixi va Turkistondagi milliy ozodlik harakalarini davr milliy matbuotini chuqur o'rganish orqali ilmiy tahlillar asosida yoritib beradi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Mavzuning obyekti bo'lib 1917-1918 yillarda Turkistonda faoliyat olib borgan milliy siyosiy hamda butunrossiya partiyalari faoliyati va ularning o'rni hisoblanadi. Mavzuning predmetini ushbu davrda Turkistondagi siyosiy tashkilotlarning faoliyati, nizomlari, qarorlari va siyosiy tashkilotlarning davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalari, ularning muxtoriyat olish uchun qilgan say-harakatlarining ilmiy-nazariy, tarixiy taxlili tashkil etadi.

Bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Mazkur mavzuning asosiy maqsadi 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar maqsadining asl mazmun mohiyatini qay darajada yoritilganligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va manaviy hayotdagi ahamiyatini xalqimizga ilmiy-tarixiy jihatdan asoslab tadqiq etish. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi.

- Tirkistonda 1917 yil fevraldan so'ng ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning jamiyat hayotidagi o'rnini obyektiv belgilash.

- 1917-1918 yillarda milliy siyosiy tashkilotlarning yuzaga kelishi, mohiyati, mazmuni, xususiyatlarini ilmiy-tarixiy taxlil qilish;

- Siyosiy tashkilotlar, partiyalarning milliy mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lidagi harakatlarini taxlil qilish va ko'rsatib berish;

- Tirkistonda muxtoriyatchilik harakati va Turkiston muxtoriyatining tashkil topishida o'lkada tashkil topgan partiya va tashkilotlarning tarkibini o'rganish;

- Turkistonda sovet avtonomiyasining tashkil topishi va uning muxim bo'g'inlari bo'lgan sho'ro partiya organlari, va boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning shakllanishi va ularning siyosiy hayotdagi o'rnini obyektiv baxolash;

- Sho'rolar tomonidan o'tkazilgan saylovlar va ularda mahalliy aholi vakillarining ishtiroki va o'rnini belgilash;

- Bu davrdagi siyosiy tizim hukmronligi sharoitida o'lkada mavjud bo'lgan maxalliy aholining har hil siyosiy tashkilotlar, birlashmalar va harakatlarning faoliyati, ularning sho'rolar hokimiyatiga nisbatan munosabatini ko'rsatish;

- 1917-1918 yillardagi siyosiy tashkilotlarning demokratik davlatchilikni tuzish va uni mustaxkamlashdagi harakatlarining bugungi kundagi ahamiyatini ochib berish.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-Milliy siyosiy tashkilotlar tushunchasining mazmun-mohiyati, yuzaga kelish hususiyatlarining tarixiy nuqtai nazardan ilmiy va amaliy tahlil etish;

-Milliy siyosiy tashkilotlar, partiyalarning milliy mustaqillikni qo'lga kiritishda demokratik talablarni olg'a surganligining ahamiyatini ko'rsatib berganligi;

-Siyosiy partiyalarning o'sha davrdagi halqning manaviy, ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'rni ochib berilgan;

-Milliy ziyolilar tashabbusi bilan siyosiy firqalarga uyushib mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lidagi harakatlari Sovet hokimiyati tomonidan yo'qqa chiqarilganligi holati ilmiy-tarixiy tahlil qilingan, holisona baho berilgan.

Mavzuning nazari-uslubiy asosi. Tanlangan tadqiqot mavzusining tadqiq etishda biz tarix fani, fandagi muammolar, tarix fani oldiga qo'ygan vazifalar hususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, risolalari, nutqlarida bayon qilgan fikr va tamoyillarga asoslandik.

Tanlangan mavzuni ilmiy jihatdan yoritishda ilmiylik, tarixiylik, umumiylik, yahlitlik, aloqadorlik, davomiylik, mukammallik, mantiqiylik, milliy va umuminsoniylik tamoyillari muhim nazariy asos bolib hizmat qilgan. Bu mavzuni yozish jarayonida yangicha tarixiy tafakkurning ustivorligi, muammoni o'rganishga tarixiylik prinsipi asosida yondoshish ishning metadologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning manbaviy asosi. Bitiruv malakaviy ishning manbaviy asoslari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan materiallar (O'zRMDA), "Ulug' Turkiston", "Turon", "Najot", "Kengash", "Xurriyat", "El bayrog'i", "Ishchilar dunyosi" kabi davriy matbuot sahifalari, "Fan va turmush", "Sharq yulduzi" jurnallari, disertatsiyalar, aforeferatlar, ilmiy monografiyalar va adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovani o'z ichiga oladi.

I. BOB. ROSSIYADAGI FEVRAL INQILOBI VA TURKISTONDA SIYOSIY JARAYONLARNING JADALLASHUVI

I.1. 1917 – yil Fevral burjua demokratik inqilobidan keying Turkistondagi siyosiy ahvol.

1917 – yil 28 – fevralda Petrograddagi inqilobiy voqealar nixoyasiga yetdi, Rossiya imperiyasi poytaxtida demokratik inqilob g'alaba qozondi, bu inqilobni butun mamlakat qo'llab – quvvatladi. Chorizmning ag'darilishi Turkiston jamiyatining siyosiylashuvida jo'shqin jarayonlarni boshlab berdi. Yuz minglab “mudroq” odamlar uyg'onib, siyosiy faoliyatga kirishdilar. Xukumat tuzilmalarini qayta qurishga kirishildi. Hamma joylarda ijtimoiy siyosiy tashkilot va partiyalar tuzila boshlandi. Siyosiy manfaatlarni ancha erkin ifoda qilish imkoniyati paydo bo'ldi¹⁰.

1917 – yil 2-martda Rossiyada tuzilgan Muvaffaq hukumatning 3 – martda e'lon qilgan Bayonnomasi va 6 – martda e'lon qilgan Rossiya fuqarolariga Murojatnomasida o'z dasturini bayon qilib berdi. Xukumat siyosiy erkinliklar – so'z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yiq'ilishlar va ish tashlashlar erkinligi joriy etilganligini; barcha tabaqa, diniy va milliy cheklashlarning bekor qilinganligini; boshqaruv shaklini va mamlakat konstitutsiyasini belgilash lozim bulgan, hamda umumiy, eng to'ppa to'g'ri va yashirin ovoz berish asosida o'tkaziladigan Ta'sis majlisini chaqirishga darxol tayyorgarlik ko'rish, umumiy, teng va yashirin ovoz berish asosida mahalliy o'z – o'zini boshqarish organlariga saylov o'tkazish; polisiyani xalq milisiyasi bilan almashtirish; to'la siyosiy amnitsiya e'lon qilinishi lozimligini tantanali ravishda ma'lum qildi. Muvaqqat hukumat tashqi siyosatida urushni “g'alabagacha” yetkazish muddaosini va avvalgi hukumat ittifoq davlatlari bilan tuzgan shartnomalar va bitimlarni og'ishmay bajarajagini e'lon qildi.

Petrogratdagi voqealar yangi hokimiyat tuzulmalarini barpo etish, dastlabki qonun aktlari Rossiya mustabid hokimiyatining ko'p asrlik

¹⁰ Azamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 28-bet.

hukmronligi bilan aloqani uzib, demokratiya ijtimoiy adolat yo'liga kirayotganligini butun dunyoga ma'lum qildi. Mamlakat aholisining ko'pchiligi uning juda ko'p xalqlari, turli sinflari ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlari inqilobni baland ruh bilan qabul qildilar va uni qo'llab – quvatladilar. Turkistonning barcha xalqi uyg'ondi.

1917 – yilning ko'kasi Turkiston o'lkasining musulmon aholisining siyosiy jihatdan uyg'otishda avj olayotgan demokratik jarayonlarga muddaosi bo'lgan yangi kuchlarning siyosiy maydonga chiqishida burilish nuqtasi bo'ldi. Jadidlar vujudga keltirgan milliy demokratik kuchlarning o'zagi tub xalqning taraqqiyoti va mustaqilligi to'g'risidagi o'z g'oyalarini o'lkada demokratik inqilob bilan bog'lab, o'zlari e'lon qilgan prinsiplarni amalga oshirishga faol kirishdilar.

Vatan tarixshunosligida fevral voqealaridan keying rivojlanishning jo'shqin va ziddiyatli sahifalari ancha to'liq bayon etilgan. Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarda fevraldan keying jarayon, inqilobiy yangilanish ichki Rossiya va o'lkadagi mahalliy yevropaliklarning siyosiy harakatlari bilangina bog'liq, deb qat'iy takidlab kelindi. Xolbuki bu davrda mahalliy aholi siyosiy hayotga faol jalb etilibgina qolmay, balki tarixiy voqealarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina shaxar va qishloqlarda tartibsiz ravishda miting va norizolik yig'ilishlari boshlandi. Ularda turli demokratik jamoat tashkilotlarini yuzaga keltirish haqida qarorlar qabul qilindi.¹¹

Samarqandda nashr etilgan “Xurriyat” gazetasi shunday deb yozadi... “nihoyat, Rossiyada biz orzu qilgan va sabrsizlik bilan kutgan inqilob yuz berdi. Eski hukumat ag'darildi. Bizlarga erkinlik berildi, endilikda biz so'z erkinligi, matbuot erkinligiga egamiz. Endilikda haqiqatni aytgan va yozgan

¹¹ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Отв. ред. Р.Я.Раджапова. –Ташкент: Шарк, 2000. –С.32.

paytimizda og'zimizni yopishmaydi. O'z huquqlarimizni talab qilgan paytda bizga quloq solishadi.”¹²

Muvaqqad hukumat tomonidan e'lon qilingan bayonnomadagi ko'pgina vadalar quruq bayonet darajasida qolib ketdi. Tub o'zgarishlarga chaqiriqlar amaliy ishlarda o'z aksini topmadi¹³.

Sho'ro tarixiy adabiyotida fevral inqilobi tufayli yuzaga kelgan o'lka ijtimoiy – siyosiy tashkilotlari xarakatlari Chor ma'muriyati qarshiligini yengish bo'yicha ozmuncha sayi – harakatlar qilmagani haqqoniy ko'rsatildi. Tadqiqotlarda 1917 – yil mart kunlarida musulmon aholisining siyosiy harakati haqida ayrim ma'lumotlarga keltiriladi, milliy ziyolilarning, eng avvalo, jadidlarning vatanparvarlik faoliyati buzib ko'rsatiladi, ularning mahalliy aholini mustamlakachilikning saltanat tuzilmalariga qarshi kurash, Turkistonning milliy uyg'onishdagi safarbarlik roli kamsitiladi.

Xolbuki, chor samoderjaviyasi aparatini tugatish va yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda milliy tashkilit va harakatlar faol ishtirok etdi. Takidlash kerakki Turkiston mahalliy halqlarining inqilobiy o'zgarishlarga qo'shilishi bir xil kechmagan. O'lkaning hozirgi kuni va kelajagiga turlicha qaraydigan hilma – hil kuchlar mavjud edi.

Agar umumiy jihatdan olganda ikki muqobil oqim “o'nglar” va “so'llar”ni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'nglar konservativ feodal – diniy mafkura vakillari sifatida maydonga chiqishdi. Ular mahalliy ma'muriyatda mansabga ega bo'lgan va tegishli imtiyozlardan foydalangan amaldorlar, feodallar va ruxoniylar feodallar mafaatlarini ifoda etardilar. So'llar ijtimoiy tuzumning tubdan o'zgarishida mustamlaka – feodal siyosiy va iqtisodiy institutlarni tugatishdan o'ta manfaatdor bo'lgan ijtimoiy guruh va qatlamlar manfaatlarini o'zida aks

¹² Azamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 29-bet.

¹³ O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakchiligi davrida. -Toshkent: Sharq, 2000. 34-bet.

ettirgan edi. O'nglar chor hokimiyati yillarida mustamlakachilik ma'muriyati va samoderjaviya siyosatini to'la – to'kis quvvatlab kelishgandi. Fevral inqilobi sharoitlarida ular maishiy va ijtimoiy hayotda potriarhal – feodal negizlarini saqlashga mo'ljallangan tadbirlarni qo'llab – quvatlash tarafdorlari bo'lishdi¹⁴.

O'nglardan farqli ravishda so'l qanot siyosiy jihatdan ancha tabaqalashgan edi. U avvalo hokimiyatdan chetlatilgan, chorizmning bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatidan norizoligini ochiq aytadigan feodal – diniy qatlamlari vakillarini o'z ichiga oldi. Ular fevralgacha bo'lgan davrda qurolli qo'zg'alon yo'li bilan ozodlik va mamlakat mustaqilligiga erishish hon hokimiyati va shariat qonunlari, zamindorlar va musulmon ruxoniylarining yo'qotilgan imtiyozlarini tiklash, o'lka halq ommasini yevropacha madaniyat va axloq ta'siridan saqlash g'oyalarini ilgari tuzishdi. Fevral voqealaridan keying sharoitlarda ularning bir qismi demokratiya tomon sezilarli qadam tashladi, lekin bir qator asosiy masalalarda (din, shariat va hokazolar) ilgarigi qarashlarida qolishdi. O'lka mahalliy aholisining ushbu qismining aksari qarashlarini “Sho'roi Ulamo” siyosiy tashkiloti o'zida aks ettirdi.

So'l harakatida boshqa yo'nalishda radikal kayfiyatdagi milliy ishchi, dehqon, hunarmand va boshqa mehnatkashlar bor edi. Fevralgacha bo'lgan davrda ular chor samoderjaviyasiga qarshi qurolli chiqishlarda faol ishtirok etishdi.

Chor tuzumi ag'darilgandan so'ng bir qismi hokimiyatni zo'rlik bilan egallashni maqsad qilib qo'ydi va jumladan “ishchi musulmon va kambag'allar huquqlarini qo'lga kiritish”ga vada bergan bolsheviklashgan sovetlarning g'oyaviy ta'siri ostida bo'ldi. Ko'pchiligi esa Muvaqqat hukumat, so'ngra sovet hokimiyati siyosatidan qattiq norozi bo'lib kryinchalik keng quloch

¹⁴ Alimova D. Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2000. 26-bet.

yozgan, mustaqillik uchun kurashgan ommaviy harakat “Istiqlolchilik harakati” ning asosini tashkil etdi: “O’nglar” va “So’llar” o’rtasidagi islohotning madaniy yo’lini taklif etgan “markazchilar” ishg’ol etdi. Ijtimoiy jihatdan ular milliy ziyolilarning asosiy ommasi va sovet bozor munosabatlari vakillarining manfaatlarini aks ettirdi. Siyosiy jihatdan ular jadidlar, taraqqiychilar va boshqa islohotchi oqimlar manfaatlarini himoya etdilar. Fevral inqilobidan keying sharoitlarda “Sho’roi Islomiya”, “Turk adami markaziyat” firqasi, “Alash o’rda” va boshqa musulmon “markazchilar”ning eng ko’zga ko’ringan siyosiy tashkilot edi. Turkiston o’lkasidagi tashkil topgan bu tashkilotlarning asosiy maqsadlari mustaqillikka erishish edi.

1917 – yil mart – aprel oylari o’lkaning siyosiy uyg’onishida burulish davri bo’ldi. Turkiston jadidlari, milliy ziyolilar va islom ulamolarining yetakchilari bo’lgan Maxmudxo’ja Bexbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o’q’li, Ubaydulla Xo’jayev, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Ho’jayev, Sadriddin Ayniy, Mustafo Cho’qay, Muxammadjon Tinishboyev, Sherali Lapin, Axmad Zakiy Validiy To’g’on, Obidjon Maxmudov, Toshpo’latbek Norbo’tabekovlar o’lkada yangi tashkil qilingan “Sho’roi Islomiya”, “Turk adami markaziyat federalistlar firqasi”, “Ittifoqi Muslimin” siyosiy partiyalarining tashkil topishida muxim ro’l o’ynadilar.¹⁵

“Musulmon mehnatkashlari ittifoqi” – “Ittifoq” mahalliy aholi siyosiy kuchlarining joylashuvida alohida o’rin tutgandi. Asosan bu tashkilot yevropalashgan sovetlar homiyligi ostida bo’lib, mustaqqil siyosiy dasturni ilgari surmadi. Siyosiy yo’nalish bo’yicha “Ittifoq” a’zolari asosan “kelishuvchi” partiyalar qarashlariga yaqin turgan bu partiyalar podshox ag’darilgandan so’ng dastlabki oylarda hokimiyatni egallashni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ymadi, balki milliy demokratlar kabi hokimiyatni qayta

¹⁵ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi. -Toshkent: Universitet. 2002. 6-bet.

qurishning o'tkir muammolarini hal etishda sivilizatsiyaviy usullarni taklif etdi¹⁶.

Ko'rsatilgan siyosiy tashkilotlar yetuk tuzilma va g'oyaviy birlashmalar emas edi. Ularning har birida izchil siyosiy tabaqalanish jarayoni ro'y berardi, yangi yo'nalishlar ajralib chiqordi. Ijtimoiy shart – sharoitlar tasirida ularning qaysidir qismi kurashning keskinroq yo'lini tanlab, boshqasi aksincha ancha mo'tadil va hatto konservativ qoloq munosabatlarga o'tardi. Biroq inqilobning boshlarida, g'oyaviy kelishuvchiliklarga qaramay, yangilanishdan manfaatdor bo'lgan barcha siyosiy guruh va musulmon jamiyati qatlamlari chor mustamlaka ma'muriyatini tugatishga intilishda birdamlik namoish etdilar. Mart oylarining dastlabki kunlarida yevropalik siyosiy harakatlar tashabbusni ko'p jihatdan o'z qo'llariga oldilar. Jumladan 2 – martdayoq O'rta Osiyo temir yo'li Turkistonda birinchi ishchi deputatlari Soveti tuzildi. 3 – martda Toshkent ishchi deputatlari Soveti tashkil etildi. Mart oxirlarida bu ikki sovet birlashtirildi. Shundan keyin dehqon deputatlari Soveti ham tuzila boshlandi.

O'lkaning milliy tarkibiga ko'ra tashkil etilayotgan Sovetlar o'lka aholisining ko'proq yevropaliklar qismidan edi. Chunki yevropaliklar jamoasi ichida turli ijtimoiy qatlamlar va siyosiy qarashlar, fikrlashlar hilma – hilligiga qaramay, ularning barchasini Rossiyaga aloqadorlik hissi birlashtirib turardi. Ular o'z taqdirларini jamiyatni qayta qurish istiqbollari birinchi navbatda metropoliya bilan bog'lashgandi. O'lka manfaatlari esa, ikkinchi o'rinda turardi. Har tomonlama begona madaniyat bilan o'ralgan mahalliy aholining o'ziga hos mentaliteti bilan duch kelgan “yevropaliklar” buyuk davlatchilik mafkurasi bilan zaharlangandi.

Ular bilan mahalliy aholi o'rtasidagi bu ziddiyat o'lka siyosiy hayotida to'liq aks etdi, ayniqsa yangi hokimiyat tuzilmalarini tashkil qilish masalasida bu yorqin namoyon bo'ldi. Martning dastlabgi kunlarida Toshkent shaxar

¹⁶ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Отв. ред. Р.Я.Раджапова -Ташкент: Шарк, 2000. –С,52.

Dumasi binosida shaxarning turli ijtimoiy tashkilotlari vakillari yig'ildi va Toshkent jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mitasini (Toshshaharijroqo'm) saylash haqida qaror qabul qilindi. Biroq nomzodlar ro'yhatida asosan Toshkentning yevropaliklar (yangi shahar) qismidan saylangan delegatlar kiritildi. Bu mahalliy aholida halq noroziligini uyg'otdi¹⁷.

Toshshaharijroqo'mga eski shahardan 8 ta nomzod ko'rsatilgandi, saylov 1917 – yil 6 – martda jome masjidida bo'lib o'tdi. Ulardan 2 kishi jadidchilik harakatining yo'l boshchilari Ubaydulla Xo'jayev va Tashpo'latbek Norbo'tabekovlar saylandi. Ular ham musulmon, ham rus qonunchiligida savodli ish olib borganlari uchun shunga loyiq ko'rindilar. Afsuski, musulmon jamoatlari ichidagi turli siyosiy oqimlar o'rtasida ziddiyatlar boshlanib ketdi. O'sha kuniyoq ruxoniylarning konservativ qismi – qadimchilar mazkur nomzodlarga qarshi norozilik bildirdilar.

Ular o'z targ'ibotchilarini mahallalarga jo'natishdi. Qadimchilarning noroziliklari shundan iborat edi: n “Biz bilan maslahatlashmay turib Toshshaharijroqo'mga nomzodlarni o'zboshimchalik bilan saylashga kim huquq berdi ularga? Ulamo boy va amaldorlardan nima uchun hech kim yo'q?”¹⁸

Jadidlar qadimchilar bilan ziddiyatga borishni istamay, xalqni yana namoyishga yig'ish va uning to'liq qo'llab – quvatlashiga erishishga qaror qildilar. Ular har bir mahallaga e'lon osib, unda eski shahar aholisining Toshshaharijroqo'mga delegatlarini saylash munosabati bilan Chorsu maydonidagi Jome masjidida 9 – mart kuni bo'ladigan saylovga taklif etdilar. Belgilangan muddatga 20 mingdan ziyod kishi yig'ildi. Yig'ilish ishtirokchilari Ubaydulla Xo'jayevni rais, Munavvar qorini rais o'rinbosari, Islombek Xudoyorhonovni majlis kotibi etib saylashdi. Musulmon an'alariga ko'ra,

¹⁷ Xolboyev S. Jadidlarning mustamlaka sovet tuzumi davridagi faoliyati va taqdiri (1917-1930 yillar). B.201,216. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam 1. –Toshkent: Universitet, 1999. 207-bet.

¹⁸ Azamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 34 – bet.

Qur'onni eng yahshi o'qiydigan Abdusoni qori hurriyat qurbonlari hotirasiga muqaddas suralardan o'qidi¹⁹.

Shundan so'ng Munavvar qori kun tartibi va nutq so'zlash tartibini tushuntirdi, 30 dan ortiq notiqlar alangali nutq so'zladi.

Ubaydulla Xo'jayev va Toshpo'latbek Norbo'tabekovlarning vakolati yig'ilganlar tomonidan bir ovozdan tasdiqlandi. Shunday qilib ular, qadimchilar ayb qo'yganidek, nafaqat yoshlar balki butun xalq tomonidan rasman saylangan vakillar bo'lishdi. Ushbu yig'ilishda Toshshaharijroqo'mi delegatlari bilan doimiy aloqada bo'lish va halqni qabul qilinayotgan qarorlar bilan o'z vaqtida habardor qilib turish uchun Toshkentning 4 dahasidan 40 kishi saylandi.

Biroq 10 – 11 mart kunlari saylangan delegatlarga qarshi yana norozilik to'liqini ko'tarildi. buni ulamo, amaldor va boylarning tarafdorlari uyushtirishdi. Bu habarni eshitgan Ubaydulla Xo'jayev va Toshpo'latbek Norbo'tabekovlar o'z nomzodlarini darhol qaytarib oldi va qayta saylov o'tkazishga undadi. bunday qaror hammani hayajonga soldi, zero Toshkent eski shahar aholisining ko'pchilik qismi ko'rsatgan delegatlardan boshqa mos nomzodlar yo'q deb hisobladi. 13 – martda yana umumhalq namoishi bo'lib o'tdi. Ertalab soat 10ga kelib Jome masjidi ichkari va tashqarisi odamlar bilan to'lib – toshgan edi. Bu haqda “Najot” gazetasi shunday yozadi: “Aftidan 10 ming kishi yig'ilgan bunday uyushgan tinch yig'ilish Turkistonda birinchi marta bo'lyapti. Bu namoyish shuni ochiq ko'rsatadiki, Turkiston musulmonlari uyushgan va madaniy halqdir”.²⁰

Majlis Toshshaharijroqo'm a'zoliciga Shayhontohurdan Ubaydulla Xo'jayev, Ko'kchadan Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sebzordan Zayniddinxo'ja Sarimsoqxo'jayev va Beshyog'ochdan Abdusafihon Qo'nihon o'g'li saylandi.

¹⁹ Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi-milliy uyg'onish davri tarixi. -Namangan: Namangan 2012. 154-155- betlar.

²⁰ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Отв. ред. Р.Я.Раджапова -Ташкент: Шарк, 2000.-С,32.

Mazkur majlisda polisiya tizimini tugatish va uning o'rniga mahalliy aholidan muhofizlarning saylash haqidagi qaror muhim ahamiyatga ega bo'ldi. ko'pchilik ovoz bilan Eski shahar komissarligiga Islombek Xudoyorhonov, uning o'rinbosari etib Musaxon Mirzayimov saylandi.

Muxovizlar lavozimiga Shayxontohurdan Kattaxo'ja Eshon, Sebzordan Tojihon, Ko'kchadan Mirzaqosim, Beshyog'ochdan Saidkomilxonlar tasdiqlandi.²¹

Bu qaror Toshkent ijroqo'mi va Turkiston o'lkasi general – gubernatori Kuropatkinga darxol yetkazildi, chunki ishlarni olib borishda qarshilik ko'rsatmasligi uchun hokimiyat polismister va pristavlarini bu voqeadan habardor qilib qo'yishi lozim edi. 18 – martda barcha ishlar, shuningdek polisiyaning kiyim – kechak va shahsiy qurollari endilikda eski shaharda tartib intizomni qo'riqlashga da'vat etilgan muhofizlarga berildi.

Bu voqea mohiyatan olganda chor hokimiyati tizimining buzilishini boshlab berdi.

Majlis ishtirokchilari, shuningdek Toshkent jamoatchilik tashkilotlari ijroiya qo'mitasiga ham delegatlar saylandi, eski shaharning barcha qismlarida kengaytirilgan vakolatli organ ta'sis etishdi. 14 – mart kuni kech soat 8 da Abduvalixo'ja honadonida xalk saylagan vakillarining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uning tarkibi aholisining tatr va qozoq qismi vakillari hisobiga ko'payganidan so'ng 60 kishidan iborat bo'ldi. Bu organ “Sho'roi Islom” yoki “Sho'roi Islomiya” nomini oldi. (“Sho'ro”, “Sovet” so'zining o'zbekcha ma'nosini anglatadi.) tashkilotlari nomini shunday tanlagan ishtirokchilar o'sha paytda ommaviy bo'lgan “Butun hokimiyat Sovetlarga” shioriga o'zlarining hayirxahligini ta'kidlamoqchi bo'lishdi. Shuni aytish kerakki boshida sho'rolar ham yevropalik ham musulmon aholisining ko'pchiligi tomonidan ruxlanib kutib olindi.

²¹ Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). -Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 17-bet.

Xulosa qilib aytganda, chorizmning ag'darilishi Turkiston jamiyatining siyosiylashuvida jo'shqin jarayonni boshlab berdi. Yuz minglab "mudroq" odamlar uyg'onib, siyosiy faoliyatga kirishdilar. Xukumat tuzilmalarini qayta qurishga kirishildi. Xamma joylarda ijtimoiy – siyosiy tashkilotlar va partiyalar tuzila boshlandi. Siyosiy manfaatlarni ancha erkin ifoda qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Umuman olganda, Turkistonda 1917 – yil fevraldan so'ng ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar va taraqqiyparvarlarning faollashuvi o'lka aholisining siyosiy uyg'onishida namoyon bo'ldi.

I.2. O'lkada milliy – siyosiy tashkilotlarning yuzaga kelishi.

Tarixdagi barcha milliy, madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy–siyosiy harakatlar qachon va qayerda paydo bo'lishidan qat'iy nazar qachonki millat uchun hayotiy zaruriyat va ehtiyojga aylansagina, o'sha paytda ma'lum bir ijtimoiy guruh yordamida o'z-o'zidan dunyoga keladi. Bizga ma'lumki jadidchilik harakati ham mana shu tarixiy qonuniyat - davr talabi, ehtiyoji asosida yuzaga keldi. Turkistonda fevral inqilobidan keyin vujudga kelgan milliy – siyosiy tashkilotlar ham millat va vatanni Rossiya mustamlakachiligidan ozod etib, mustaqil milliy davlatchilikni tiklash bo'ldi.

Ilgari turkiston xalqlarini ma'rifat sari yetaklash maqsadini ko'zlagan ziyolilar aynan shu davrdan boshlab, siyosiy maqsadlar yo'lida ilk bor tashkilotlarga uyushib, dastur asosida harakat boshladilar.

1916 – yilga qadar ham faoliyat ko'rsatgan milliy jamiyatlar 1917 – yildan boshlab o'z oldilariga siyosiy vazifa va milliy ozodlik g'oyalarini qo'ygan tashkilotlar tuzila boshlandi.

1917 – yilning dastlabki oyidan boshlab, milliy ozodlik uchun boshlangan harakat bu yerda yangi hokimiyatning rus tashkilotlari bilan bir qatorda “Sho'roi Islomiya”, “Turon”, “Sho'roi ulamo”, “Turk adami markaziyat”, “Mirvaj ul - islom”, “Miftoq ul - maorif”, “Ravnaq ul - islom”, “Ittifoq ul - muslimin” kabi milliy tashkilotlar, yigirmaga yaqin milliy jamiyat va to'garaklar tuzildi²².

Islom diniga e'tiqod qiluvchi mahalliy aholidan saylangan deputatlar sho'rosi (soveti) “Sho'roi Islom” yoki “Musulmonlar sho'rosi”²³ nomi bilan 1917 – yil 14 – martda Toshkentda ilk bor tashkil topadi. “Sho'roi Islomiya” bir butun musulmon halqlari manfaatlari va hohish irodasini o'zida aks ettirgan holda jaded milliy mustaqil demokratik davlat boshqaruvining kurtagi sifatida

²² Ermetov A. Turkistonda nazorat organlari faoliyati. (Ishchi-dehqon militsiyasi va Ishchi-dehqon inspeksiyasi 1917-1924 yillarda). –Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007. 17-bet.

²³ Mingnorov A.T. Turkistonda milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. -Toshkent: 2000. 125-bet.

faoliyat ko'rsatadi. Birinchi tashkiliy majlis 1917 – yil 14 – mart kuni Abduvali Xoji honadonida bo'lib o'tadi. Shu kuni bu yangi milliy hokimiyat boshqaruv organi yangi kurtagining nomi “Sho'roi Islomiya” deb belgilandi.

“Sho'roi Islomiya” byurosining asosiy maqsadi Turkistonning tub yerli aholisi manfaatlarini himoya qilish edi. Milliy siyosiy jamiyatlarning tuzilishida Munavvar qori Abdurashidhonov , Abdulla Avloniy, Laziz Azizzoda, Abdulvohid Qori, Maxmudxo'ja Behbudiy, Kottaxoja Boboxo'ja o'g'li, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Shokirjon Raximiy, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Mustaf o Cho'qay, Xoji Muin Shukrullo, Qo'zi Yunusov, Abdulsomi Qori Xidoyatboy o'g'li kabi yetuk ziyolilarning hissalari nihoyatda beqiyos ekanligidan darak beradi. “Sho'roi Islomiya”ning 15 kishidan iborat boshqaruv rayosatini 14 – mart kuni tasdiqlashdi.

“Sho'roi Islomiya” rayosatining ikkinchi majlisi 15 – mart kuni Munavvar Qorining honadonida bo'lib, “Sho'roi Islomiya”ning vaqtinchalik Muvaqqat qonuni (Nizomi)ni qabul qiladi. Bu to'rt qismdan iborat xujatda “Sho'roi Islomiya”ning maqsadi, vazifasi, tashkiliy tuzilishi va moliyaviy ta'minoti aniq ko'rsatiladi.²⁴

Ushbu “Sho'roi Islomiya” jamiyatining faoliyati uning dastlabki oylaridanoq xalqni o'z orqasidan ergashtira oladigan har tomonlama kuchli siyosiy organ ekanligini namoyon etdi.

“Sho'roi Islomiya” boshqaruvining qaroriga muvofiq barcha viloyat va tumanlarga targ'ibotchilar yuborildi. Ular o'lkaning mahalliy aholisiga fevral inqilobi e'lon qilgan ozodlikning mohiyatini tushuntirish siyosiy, diniy va ijtimoiy islohotlarni o'tkazish uchun “Sho'roi Islomiya” bayrog'I ostida birlashishga da'vat etilgan edi.

20 – martda Eshonguzar mahalla guzarida Qo'liboy Tugusov va 21 – martda qovun bozori yaqinida Munavvar Qori rahbarligida namoishlar bo'lib o'tdi.

²⁴ Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi – milliy uyg'onish davri tarixi. –Namangan: Namangan, 2012. 159-bet.

25-mart “Sho’roi Islomiya”ning 4 – umumiy majlisi bo’lib o’tdi. Unda 15-aprelga mo’ljallangan Umumturkiston musulmonlari sezini o’tkazish bo’yicha mahsus dasturni tayyorlash bilan bog’liq bir qator muhim masalalar ko’rib chiqildi.

1917 – yil aprelda bo’lib o’tgan tashkilotning umumiy majlisida uning raisi Abdulvohid qori Shayhontohur dahasiga qozi etib saylanishi munosabati bilan iste’fo berdi. Uning o’rniga majlis Ubaydulla Xo’jayevni bir ovozdan sayladi. “Sho’roi Islomiya”, “Najot” va “Noshir” gazetalari uning noshir organlari sifatida faol chop etila boshladi. “Sho’roi Islomiya” juda tez orada xalq orasida kuchli siyosiy tashkilotga aylandi.

“Sho’roi Islomiya”ning tashabbusi bilan 1917 – yil 16 – 22 aprelda Butun Turkiston musulmonlarining birinchi qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ishtirokchilari bir qancha masalalar qatorida Turkiston o’lkasining davlat maqomi masalasini ham muhokama qiladilar. Bu qurultoyda Turkiston o’lka musulmonlari Markaziy sho’rosi (Kraumussovet) – Milliy markazni tashkil qilishga qaror qabul qilindi. Milliy markazda rais bo’lib Mustafo Cho’qay, unga o’rinbosar etib Islom Shoahmedov, Axmad Zaki Validiy va Ubaydulla Xo’jayevlar saylandi. Bu esa tashkilotlarni birlashtirish bilan birga milliy ozodlik harakatini yagona izga solib, tashkiliy jihatdan markazlashtirar edi.²⁵

Shuni aytib o’tish kerakki bo’lib o’tgan qurultoyda ishtirok etgan vakolatli 150 ta vakil (delegat) shu davrning eng dolzarb masalalarini sakkiz kun davomida o’ta qizg’in muhokama qilib, bo’lajak demokratik davlat boshqaruvini tashkil etish, halqimizning haq – huquqi va tengligi hamda erkinligini qonuniylashtirish, himoya qilishga oid qarorlar qabul qildi.²⁶ Bu qurultoyda hamma ziyolilar birlashgani yaqqol sezilib turgan bo’lsada aslida unday emasdi.

²⁵ Eshov B. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 456-bet.

²⁶ Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi – milliy uygonish davri tarihi. –Namangan: Namangan, 2012. 161-bet

“Turon” jamiyati “Sho’roi Islomiya” dan keyin 1917 – yil aprelida tuzilgan edi.²⁷ “Ulug’ Turkiston” gazetasi sahifalarida habar qilinishicha Turkiston aholisi hurriyat yo’lida uyusha boshlagan, yosh va o’qimishli ziyolilar tomonidan “Turon” guruhi tuzilgan. Fevral inqilbidan keyin Turkistonda ko’plab milliy siyosiy tashkilotlar tuzilgan bo’lib ularning aksariyati nizom yoki dasturga ham ega emas edi. Xatto Abdulla Avloniy boshchilik qilgan mashhur “Turon” taraqqiyparvarlar jamiyati ham dasturga ega bo’la turib, keng harakatlar dasturiga ega bolmagan. U o’z oldiga qo’ygan vazifalariga ko’ra marifatparvarlik jamiyati edi. Turkiston muxtoriyati muammosi milliy zodlik harakatini barcha harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlarini tutashtirgan asosiy nuqta bo’ldi. 1917 – yil yozida Butunrossiya Tasis majlisiga saylovlar arafasida Turkistonlik taraqqiyparvarlar o’zlarining siyosiy partiyalarini tuzish zaruriyatini anglab yetishdi. Taraqqitparvarlar “Turon” ma’rifiy jamiyatini demokratik tamoyillarga asoslangan partiyaga aylantirish g’oyasini ilgari surdilar. Tarixchi olim S. Azamxo’jayevning yozishicha yetarli partiyaviy ish tajribasi bo’lmagan turkistonlik islohotchilar namuna sifatida “Musovot” demokratik partityasi dasturidan foydalanganlar.

Turkistonliklar taklifiga binoan tayyorgarlik ishlarini o’tkazish uchun Toshkentga 1917 – yil iyul boshlarida “Musovot” partiyasining taniqli faollaridan ulamo Abulqosim Amirzoda, jurnalist Piri Mursilzoda, muallim Muxamadamin Afandizodalar taklif etildi. 1917 – yil 4 – iyulda ulamo jamiyati ularning sharafiga Toshkentda iftorlik tashkil qildi.²⁸

Turk federalistlar partityasi (Musovot) dasturi bilan Turkistondagi ushbu partiyaning mezonnomasi solishtirilganda bu holat yaqqol ko’rinardi.

Biroq manashunday o’ta ma’suliyatli bir paytda Markaziy - “Sho’roi Islomiya” – Butunturkiston musulmonlari markazi tarkibidagi jadidlar bilan

²⁷ Eshov B. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 457-bet.

²⁸ Azamxo’jayev S. Turkiston muhtoriyati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2000. 42-bet.

mutaosib ulamolar o'rtasida qarama – qarshilik yangicha ko'rinishda jiddiy tus oladi.

Natijada 1917 – yil iyun oyining o'rtalarida ulamolar “Sho'roi Islomiya”dan ajralib chiqib, o'zlari “Sho'roi ulamo”ni tashkil etadi. Bu bilan Butunturkuston musulmonlarinig vakil (delegat)lari o'rtasida rasmiy ajralish yuz berdi. Sherhali Lapin uning Toshkent shobusiga asos soldi. Bundan tashqari “Sho'roi ulamo”ning Toshkent jamiyati tarkibiga Abdumalik xoji, Abdulqodir xoji, Mulla Saidmaxsudxon Maxdum, Mulla Muxammadxo'ja, Mulla Toshpo'latqori, Mulla Pirmuxammad A'lom va boshqalar kirdi.

“Sho'roi ulamo” o'z g'oyalarini targ'ib etish uchun “Al - izoh” jurnalini nashr etdi.²⁹ Uning nashri va mas'ul muxarrisi Abdumalik xoji Abdunabiyev edi. Jurnlning birinchi soni 1917 – yil 19 – iyunda chiqdi. Xammasi bo'lib 31 sonda nashr etilgan “Al – izoh” jurnali, 1918 – yil may oyida Turkiston Sovet Respublikasining XKS qarori bilan yopildi.

“Al - izoh” O'lkamussho'ro atrofida jipslashgan ilg'or milliy ziyolilar faoliyatini qoralab, ularni islomga hiyonatda aybladi va demokratlarni xalqdan ajratib qo'yishga intildi.

Ish shu darajaga yetdiki ulamochilar sartaroshlarga ziyolilar soqolinu olishni, choyhonachilar esa ularga choy damblab berishni ta'qiqlada. Ulamochilar Turkiston musulmonlarini diniy etnik qarashlari jihatidan yakdil bo'lishi yo'lida anchagina harakat qilishdi.

1917 – yil Qo'qon shaxrida Jome madrasosida “Sho'roi ulamo” jamiyatining yig'ini bo'ldi. “Sho'roi ulamo” jamiyati yig'ini a'zolari ning 1917- yil 1 sentyabrda qabul qilgan bayonnomasida asosan Qo'qonda ham “Sho'roi ulamo” jamiyati o'z tasturida islom idnining an'anaviy asoslari bo'yicha ish ko'rishini ma'lum qilsada, aslida Sherhali Lapin boshchiligidagi

²⁹ O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakchiligi davrida. -Toshkent: Sharq, 2000. 26-bet.

Toshkebt ulamolari avval rus monarxiyasi , so'rga bolshevizm g'oyalari bilan o'z harakatlarini muvaffaqalashtirishga bexuda urindilar.³⁰

O'z maqsadlari targ'iboti uchun "Sho'roi ulamo" targ'iboti "Al – izoh" chiqara boshlaydi. Har ikkala yani "Sho'roi Islomiya" va "Sho'roi ulamo" yo'lidagi ilg'or harakatni chuvalashtirmoqda edi.

Har ikkala jamiyat o'rtasidagi g'oyaviy kurashni usha dam voqealarining shahidi bo'lgan Mustafo Cho'qay keyinalik shunday hotirlaydi. "Ulamo jamiyati" va sho'roi "Islomiya" o'rtasidagi kelishvochilik bizning umumiy kurashimizni zaiflashtirmoqda va ishlarimizni chuvalashtirmoqda edi. Ikkinchi tarafdin "Ulamo jamiyati"ning siyosiy programmasi milliy harakatlarimizning ochiq dushmanlariga bizga qarshi qurol bo'lmoqda edi.³¹

"Sho'roi Islomiya" bilan "Sho'roi ulamo" va ularning namoyondalarini birlashtirishga oid harakat "Sho'roi ulamo" tomonidan 1917 – yil 12 – 15 noyabrda chaqirilgan qurultoyda yaqqol ko'zga tashlandi.³² Bu paytda Turkiston Markaziy sho'rosi va uning rahbarlari Toshkentda emas edi. Ular Toshkentda xarbiy holat yuz berishi munosabati bilan Qo'qonga ko'chib ketgan edilar.

Darxaqiqat jaded va ulamolarning rahnamoligida "Sho'roi Islomiya" sakkis oy, "Sho'roi ulamo" esa besh oy mobaynida milliy davlat boshqaruvining mutlaqo yangi ko'rinishi – bo'lajak Turkiston muhtoriyatining kurtaklari sifatida tarihan faoliyat yuritdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tashkilotlar ijtimoiy tarkibi bo'yicha bir hil emas edi. 1917 – yil iyun oyining boshlarida Toshkentda ham "Ittifoq" tashkiloti tuzildi, uning raisi etib Sultonxo'ja Qosimxo,jayev, kotiblikka uning akasi Akbarxo'ja Qosimxo.jayev saylandi. Toshkentda tashkil etilgan bu tashkilot asosan qurilish ishchilari, mardikorlar, kosiblar, matda savdogarlar, choyhonachilarni brlashtirgan. Bu tashkilot musulmon xalqlarini savodhon

³⁰ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi. –Toshkent: Universitet, 2002. 7-bet.

³¹ O'sha asar. 8-bet.

³² Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi – milliy uygonish davri tarihi. –Namangan: Namangan, 2012. 163-bet.

qilish, ularni 1917 – yil oktyabr tuntarilishi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy voqealar bilan har tomonlama tanishirish, musulmonlarni mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishlarini tashkil etish uchun birlashtirish, musulmonlar o'rtasida fuqarolik g'oyasini tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Iyul oyining ohirlarida shunga o'hshash ittifoqlar Xo'jandda, iyul oyida Marg'ilonda tashkil etildi.

1917 – yil 25 – iyunda Qo'qonda halq yig'ini bo'lib o'tib, unda birinchi marta tashkil etilayotgan “Musulmon mehnatkashlar ittifoqi”ning nizomi qabul qilindi.

Andijonda 1500 kishi a'zo bo'lib, kirgan mahalliy aholi kasiblarining “Sano ul Islom” ittifoqi tashkil etildi. Bundan tashqari, Turkiston shaxarlarida o'qituvchilar, hizmatchilar, talabalar va boshqalarning ittifoqlari ishlay boshladi.

Toshkent. Qo'qon, Andijon va Farg'onada mahalliy aholining kasaba tashkilotlari tashkil etildi. Bunday jarayon Samarqand mehnatkashlari ommasi orasida ham kuzatiladi. 1917 – yil 5 – iyulda Samarqandliklarning “Tojik va san'atkorlar jamiyati” tuzildi. Saylangan qo'mitaga Ganshin rais, Fyodorov kotib, sifatida, qo'mita a'zoliciga Xojiqul Muhammadzoda, Mirza Orif Abdurasulzoda, Muhammadguli O'rinboy o'g'li, Muhammada'min Niyozov va boshqalar kirdilar.

1 – avgust kuni Samarqanda ikki yuz musulmon ishchilari qatnashgan majlisda “Musulmon zahmatkashlari ittifoqi”ni tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Mazkur ittifoqning raisi etib, Abdulqayum Shirinboy o'g'li. Kosib – Saidsho, hazinachi – Saidaxmadxo'ja Saddiqiy, madaniy – ommaviy ishlar bo'limi mudiri etib Akobur Shomansurzoda saylandilar.³³

³³ Axmad Zaki Validiy. Xotiralar // Sarq yulduzi. 1993, 5-6-betlar.

1917 – yil 17 – iyunda O'lkamussoho'rosi (Kraymussovet)³⁴ majlisda qabul qilingan Nizom bo'yicha shaxar, uezd, volost musulmonlar sovetlari va "Sho'roi Islomiya", "Ravnaqul Islom", "Mirvohid Islom", "Muallimlar jamiyati", "Talabalar jamiyati" kabi boshqa ijtimoiy tashkilotlar, ayrim ijtimoiy etnik farqlarga qaramay, uezd va shahar bo'limlariga birlashishlari va ihcham siyosiy birlashma sifatida Turkiston musulmonlari markaziy Sho'rosiga bo'ysunishlari lozim edi. Nizomda O'lkamussoho'ro (Kraymussovet) biron bir sinf, partiya yoki qabilaning organi emas, balki qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi vakolatli umummusulmon raxbar organi sifatida tashkil etilayotgani bayon etildi.

Zaki Validiy "Kengash" gazetasida e'lon qilingan maqolasida shunday yozadi: "Ma'lumki, hozirgi dunyoda xalq o'z maqsadlariga faqat yahshi jipslashgandagina erishish mumkin. Biroq buning uchun tashkilot zarur. Turkiston musulmonlari qo'lni qo'lga bersak, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishamiz. "Kuch birlikdadur" degan iborani hech qachon unutmang"³⁵

1917 – yil "Turk firqasining tuzilishi ham Adami Markaziyati" bevosita Kavkazdan kelgan xay'at a'zolarining faoliyati bilan bog'liq. Bu haqda habar qilgan "Ulug' Turkiston" gazetasi sahifalarida qayd etilishicha "Toshkent shahrida 1917 – yil 3 – avgust kuni kechqurun "Sho'roi Islomiya" jamiyati binosida "Turk Adami Markaziyati" firqasining majlisi bo'lgan. Unda Muhammadamin Afandizoda rais, Shokirjon Raximiy esa sarkotiblik qiladi. Majlis boshida Muhammad Amin Afandizoda firqaning maqsad va rejalari hususida ma'ruza qildi. So'ngra ikkincha masala bo'yicha firqani boshqarish uchun 20 nafar a'zo saylashga qaror qilinadi. Ochiq saylov yo'li bilan 10 kishi idora a'zoliciga saylandilar: - bular Muhammad Amin Afandizoda, Sadriddin Sharifxo'ja o'g'li, Miyon Buzruk, Munavvar Qori Abdurashidhonov, Saidalixo'ja Tursunxo'ja o'g'li, Majid Qodiriy, Nizomiddin Isomiddinxo'ja

³⁴ O'lkamussoho'ro "Milliy Markaz" deb ham yuritilgan.

³⁵ Axmad Zaki Validiy. Bo'linganni bo'ri yer. -Toshkent: Adolat, 1997, 134-bet.

o'g'li, Kottaxo'ja Boboxo'ja o'g'li, Muhammadhon Posshaxo'jayev, Isroiljon Ibroximjon o'g'li edilar.

Bulardan tashqari – Piri Mursilzoda, Ahmad Muhammadzoda, Mulla Sodiq Ohund, Abdulfattox Maxmud Abdulxo'ja o'g'li, Mulla Muborak Sodiq Mahmud o'g'li, Salohiddin Maxmud o'g'li, Yusufjon Axmadjon o'g'li, Salohiddin Muftiyzodalar ham, idora a'zoliciga qabul qilindilar. So'ngra Muhammad Amin Afandizoda firqa a'zosi bo'lib yozilish shartlari to'g'risida ma'lumot berib majlisga yakun yasadi. Turkistonning boshqa shaharlarida ham “Turk Adami Markaziyat” firqasining sho'balari ochilib, uning dasturi asosida ish olib borganligi to'g'risida ham manbaalar mavjud.

1917 – yil 12 – 14 iyulda Skobelev (xozirgi Farg'ona) shaxrida bo'lib o'tgan Musulmon Tashkilotlarinig qurultoyida dasturiy masalalar ko'rib chiqildi. Unda “Turk Adami Markaziyoti (federalistlar) firqasi”ning dasturi (maromnomasi) va 22 moddadan iborat bo'lgan Nizomi (nizomnomasi) qabul qilindi. Firqaning maromnomasi 9 qismdan iborat bo'lib, yahlit olganda demokratik jamiyatlarning asoslarini ifoda etgan. Birinchi qism “Davlat va muxtoriyat tashkiloti”deb unda bir qancha masalalar ko'rilgan.³⁶

1917 – yil 20 – avgustda eski Marg'lon shaxridagi Toshmozor dahasining Jome masjidida 2000 kishi chamasida aholi yig'ilib namoyish qildilar. Bu majlisda “Turk Adami Markaziyat” firqasining vakili qatnashib, Margilonda partiyaning sho'basini ochish uchun kelganligini bildirdi. Siyosiy jarayonlar juda tez rivojlana boshladi. Ayniqsa, milliy ziyolilar tomonidan Toshkent, Andijon, Samarqand, Farg'ona shaharlarida tuzilgan juda ko'plab milliy siyosiy jamiyat va to'garaklarni birlashtirish, yani iloji boricha yagona markaziy boshqaruv organini yaratishga harakat boshlandi. Bu vaqt “Turk Adami Markaziyat” firqasining mavqei baland edi.

Shuning uchun Andijon shaxrida 1917 – yil 23 – avgust kuni “Xavaskor maorif” jamiyatining idorasida taraqqiyparvar “Turon” jamiyati, “Talabalar

³⁶ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 457-bet.

jamiyati” va “Xavaskorlar maorif” jamiyatlarining qo’shma majlisida bu uch jamiyat “Turk Adami Markaziyat” firqasining dasturini qabul qildilar. Ushbu jamiyatning muvaqqat raisligiga Xusan Eshonzoda, sarkotiblikka Sohib Afandi, hazinadorlikka Isroil Yusufzoda saylandilar.

“Turk Adami Markaziyat” firqasi partiyasining tuzilishi Turkistonda Markaziy musulmon firqasining yuzaga kelishida katta harakat bo’ladi. Yuqoridagi masalalar bu firqada turli jamiyat a’zolarining hamkorlikda faoliyat ko’rsatganligining isbotidir.

Turkistondagi usuli idoraning hususiyati haqida “Turk Adami Markaziyat” firqasining nashri bo’lgan “Turk eli” gazetasi shunday yozadi: “O’ziga hayrihoh millatlar ila birlashgan holda turklik beshigi bo’lgan Turkistonga milliy – madaniy va ham erlik muhtoriyat (federatsiya) olmoqdur”.³⁷

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki “Turk Adami Markaziyat” firqasi ilgari surgan jamiyat tuzimi demokratik tarzda bo’lishi ko’zda tutilgan. Xulosa o’rnida shuni ham aytib o’tish joizki XX asr boshlarida Turkiston taraqqiyparvarlari mavjud tuzumni isloh qilish halqimizni rivojlangan millatlar darajasiga yetkazish uchun o’lkada turli milliy siyosiy tashkilotlarni tuzib muhim ishlarni amalga oshirdilar. O’lkadagi milliy siyosiy tashkilotlar Turkiston jamiyatining qatlamlarida siyosiy uyg’onishiga turtki bo’ldi.

³⁷ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -Toshkent: Universitet, 2002. 12-bet.

II.BOB. O'LKADA SIYOSIY TASHKILOTLARNING FAOLLASHUVI, ULARDA DAVLATCHILIK G'OYALARINING ILGARI SURILISHI

II.1. O'lkada milliy-siyosiy harakatlarning maromnomalari. “Sho'roi Islomiya”, “Sho'roi Ulamo”.

Turkistonda 1916 – yilga qadar ham faoliyat ko'rsatgan milliy jamiyatlar 1917 – yildan boshlab o'z oldilariga siyosiy vazifa va milliy ozodlik g'oyalarini qo'ygan tashkilotlar tuzila boshlandi. Yuqoridagi rejamizda ko'rsatib o'tkanimizdek 1917-yilning dastlabki oyidan boshlab “Sho'roi Islomiya”, “Turon”, “Ulamo”, “Ittifoq”, “Turk adami markaziyat” firqasi kabi yirik, kuchli milliy tashkilotlar vujudga kela boshladi. 1917-1918-yillardagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan bu tashkilotlar faoliyati o'sha davr milliy matbuotida keng aks etgan.

Biz yuqorida sanab o'tgan siyosiy tashkilotlarning, masalan, yuqorida ko'rsatilgan M.Behludiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyixasi”, “Sho'roi Islomiya”ning nizomi, Shoislom Shoaxmedovning “Turkiston fediratsiyasi” loyixasi “Turk adam markaziyat” (Federatist) firqasining nizomi shular jumlasidandir. Bu hujjatlar milliy-demokratik davlat boshqaruvi – Turkiston Muxtoriyati rasman shakllanishiga g'oyaviy-mafkuraviy asos bo'ldi.

Xususan biz ana shu milliy-siyosiy tashkilotlar yani, “Sho'roi Islomiya”, va “Sho'roi Ulamo” tashkilotlarining maromnoma yani nizomlari bilan tanishib chiqamiz. “Sho'roi Islomiya” nizomining to'la qismi tadqiqotchi Abduxolik Mingnorovning risolasida berilgan.³⁸

“Sho'roi Islomiya”ning nizomi 4 qism, 30 banddan iborat bo'lib, ularda demokratik asoslar o'z aksini topgan. Uning birinchi qismida ko'rsatilishicha, asosiy maqsad quyidagicha tashkiliy-demokratik mazmundan iborat bo'lgan.

1. “Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonga muvofik fikrni tarqatish;

³⁸ Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi – milliy uyg'onish davri tarixi. –Namangan: Namangan, 2012. 176-bet.

2. Butun Turkiston musulmonlarini bir maqsad sari yo'naltirish katta siyosiy organ orqali birlashtirishga harakat qilish;

3. Xalqni yangi hukumatining maqsad va vazifalarini amalga oshirishiga keng ishtirok etishga chaqirish;

4. Mamlakatning idora usuli haqida ma'lumot tarqatib, tashkilot majlisiga tayyorlash"³⁹

Toshkent "Sho'roi Islomiya" jamiyatining 1917-yil 9-aprel majlisida so'zlab Kattaxo'ja Boboxo'ja o'g'li bu jamiyatning dasturini qatnashchilar diqqatiga havola qildi. Kun tartibiga quyidagi masalalar qo'yildi:

1. Urush to'g'risida.
2. Muvaqqat hukumatga munosabat.
3. Kelajakda tuziladigan Rossiya boshqaruv tizimi to'g'risida.
4. Turkiston xalqlariga yangi hukumatning dasturini tushuntirish.
5. Muvaqqat halq idorasining tartibi.
6. Eski hukumat ma'murlarini ishga joylash.
7. Turkiston shahar Dumalariga saylov tartibi va yangi Duma idorasining tartibi va taqsimi.
8. Ta'sis majlisiga halqni tayyorlamoq.
9. Oziq-ovqat malasi.
10. Turkistonda suv masalasi
11. Turkistonda yer masalasi
12. Ijroiya komitasining saldat, ishchi (yevropalik aholi nazarda tutilyapti) sovetlariga aloqasi

Ayrim bir vazifalar bo'yicha muhokamalar jarayonida kun tartibi qo'shimcha ravishda yana boshqa masalalar ham kiritildi. Bu qurultoydagi eng dolzarb va muhim masala "Sho'roi Islomiya" jamiyatining dasturini ishlab chiqilishi va uning muhokamasi edi.

³⁹ Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918-yillardagi Milliy tashkilotlar. (Milliy matbuot materiallari asosida) –Toshkent: Manaviyat, 2002. 11-bet.

Dasturning har bir qismi bir qator modddadan iborat bo'lib, birinchi qismi 4 modddadan iborat bo'lib, unda Turkiston musulmonlari asosida keng islohotlarni amalga oshirib, butun Turkiston musulmonlarini yagona bir partiya atrofida birlashtirish asosiy maqsad qilib ko'rsatilgan. Dastur quyidagilardan iborat.

I. “Sho'roi Islomiya”ning maqsadi:

1. Turkiston musulmonlari asosida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonga muvofiq fikrni tarqatish.
2. Butun Turkiston musulmonlari bir maqsad sari yo'naltirish va katta siyosiy organ orqali birlashtirishga harakat qilish;
3. Xalqni yangi hukumatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda keng ishtirok etishga chaqirish;
4. Mamlakatning idora usuli haqida ma'lumot tarqatib, tashkilot majlisiga tayyorlash.

II. A'zolar.

1. “Sho'roi Islomiya” jamiyatining tarkibi umumxalq yiqini tomonidan ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan saylangan komitet, jamiyat va bir qator tomonidan saylangan vakillardan iborat.
2. Azolar o'zlarining umumiy majlislarini chaqiradi, idora uchun joy va hizmatchilar tashkil qiladi, majlislar tomonidan berilgan qarorlarni taqdim etadi, arznomalarni hisobga olib boradi.
3. Idora a'zolari o'z oralaridan rais, sarkolib hazinador va ularga muovinarlar tayinlandi.
4. Jamiyatning umumiy majlisida o'z oralaridan alohida rais va sarkoliblar saylanadi.
5. Bazi zaruriy ishlarni idora majlisi o'z qarori bilan hal etishga haqlidir. Bu to'g'risida umumiy majlisda hisobot beradi.

6. Umumiy majlis azolari katta shaharlarda 100, kichik shahar va qishloqlarda esa 50 kishidan ortiq bo'lmaydi. Idora a'zolari katta shaharlarda 20, kichik shahar va qishloqlarda 15 tadan ortiq bo'lmasligi shart.

7. Idora a'zolari madaniy va manaviy hizmatlarni tekshirib turish, umumiy majlisga hisobot berib turish uchun majlis tomonidan 6 kishidan iborat taftish hay'atini saylab qo'yadilar. Ushbu hay'ati "Sho'roi Islomiya"ning har bir komissiya va sho'basi ishlarini tekshirib turishga haqlidir.

8. Umumiy va idora majlislari, Toshkentdagi a'zolarining uchdan bir qismi yig'ilgandagina masalalarni muzokarada qo'yib hal qilishi mumkin.

Uchinchi qismda Markaziy "Sho'roi Islomiya" jamiyatini moddiy jihatdan ta'minlash qonun-qoidalari qayt qilingan.

III. "Sho'roi Islomiya"ning moliyasi.

1. "Sho'roi Islomiya"ning daromadi hukumat va daromad muassasalaridan olingan mablag'lardan har yig'in orqali jamiyatlarda yig'ilgan mablag'lardan, badavlat kishilardan olingan in'om pullar, sotilgan kitob, risola, jarima va majalla kabi matbuot ishlaridan, shuningdek har hil pullar yig'in va tomoshalardan olinadi.

2. Bu mablag'lar hizmatchilarning bajargan vazifalari uchun har tarafga yuboriladigan vakillarning hizmat safari uchun va umumiy majlis tomonidan zarur deb topilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga sarf qilinadi.

To'rtinchi qism 16 moddadan iborat bo'lib, bu bo'lim "Sho'roi Islomiya" jamiyatining kelajakdagi vazifalarini o'z ichiga oladi.

IV. "Sho'roi Islomiya"ning hizmatlari va vazifalari.

1. Turkistonning har bir shahar, qishloq va ovullarida namoyishlar o'tkazish, siyosiy, ilmiy va ijtimoiy ma'ruzalar o'qilishi.

2. Barcha joylarga targ'ibotchilar yuborish.

3. O'zining maqsad va vazifalarining Turkiston musulmonlari orasida tezroq va yaxshiroq yoymoq uchun kitob, majalla, jarima va broshyuralar tarqatish.

4. Yangi xabarlar tayinlanganini halqqa bildirish.
5. Shahar va atrof halqlariga katta kichik rahbarlar lavozimlariga yaroqli yahshi hamda ishonchli kishilarni topib berish.
6. Siyosiy, ilmiy, diniy va ijtimoiy islohat uchun loyihalar tayyorlash.
7. Turkistondagi turli millatlar orasida bo'lgan yoki bo'lmagan ihtilof va sho'balarni tugatib bir birlariga yaqinlashtirish ko'rish va shu yo'lda harakat qilish.
8. Turk millatlarning firqa va komitetlari bilan aloqada bo'lib, o'z vakillari ko'magida musulmon aholisi ehtiyojlarini komitetlarga bildirib turish va lozim bo'lganda ulardan yordam so'rash.
9. Butun Turkiston musulmonlarini bir fikr va bir maslakka keltirmoq uchun bir necha bor Turkistonning har bir shahar va qishloqlaridan vakillar chaqirib Turkiston musulmonlarining qurultoyini ochish.
10. Butun Rossiya musulmonlarining ittifoqiga Turkiston musulmonlarini ham qo'shmoq ularning byuro, komitet va qurultoylariga Turkistondan vakillar yuborib, ularning ehtiyoj va maqsadlari bilan tanishib o'z navbatida Turkiston musulmonlarining maqsadlarini ularga tanishtirish.
11. Turkiston halqlarini yangi hukumat ishlariga va tashkilot majlisi sayloviga tayyorlash.
12. O'zining hizmat va vazifalarini bajarish uchun Turkistonning har bir katta va kichik shaharlarida sho'balar ochmoqqa` harakat qilish.
13. Nechta sho'ba Markaziy organning ko'rsatmasiga amal qilsa, ular markazda bo'lgan qarorlarni qabul qilib ijro etadi. Ijro qarorlarining nusxasini markazga yuborib turish.
14. Markaz bilan sho'balar orasidagi kelishmovchilik va muammolarni Turkiston musulmonlarining qurultoyida muzokaraga qo'yib hal qilish.
15. Toshkent "Sho'roi Islomiya"si va boshqa shaharlarda ochilgan "Sho'roi Islomiya" jamiyatining sho'balarida mahsus muhr bo'lishi.

Ko'rinib turibdiki dastur keng tartibda tuzilib, unda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Dasturda "Sho'roi Islomiya" jamiyatining a'zolari halq tomonidan saylangan turli milliy jamiyat va tashkilotlarning a'zolaridan iborat bo'ladi, degan bandni bo'lishining o'zi bu dasturning ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatib turibdi. Boshqa shaharlarda tuzilgan milliy jamiyatlar markaziy "Sho'roi Islomiya"ga bog'lanishi, yani uning chiqargan qarorlarini bajarib, hisobot berishi, viloyatlardagi jamiyatlarning ishini nazorat qilishi va paydo bo'ladigan muammolarni umumiy Turkiston qurultoyi orqali muhokama qilinishining ilgari surishishi ham jamiyatning tashkiliy jihatdan ancha uyushqoq bo'lganligidan dalolat beradi.

"Sho'roi Islomiya" jamiyati o'zining halq va davlat manfaati yo'lida kurashuvchi yirik siyosiy jamiyat ekanligini ko'rsatdi. Manbalarning guvohlik berishicha bu jamiyat tarkibida turli millat va boshqa tabaqa vakillari ham faoliyat ko'rsatganlar. Shu tufayli Turkiston musulmonlarining I qurultoyida butun Turkiston uchun Markaziy "Sho'roi Islomiya" markazini tuzish g'oyasining ilgari surilishi bejiz emas edi.

"Sho'roi Islomiya" jamiyatining yuqorida ko'ib olgan nizomini tahlil etadigan bo'lsak bu siyosiy tashkilotning nizomi har tomonlama mukammal qilib ishlab chiqilgan edi. Bu nizomda, er va suv masalasiga ham va ularni teng taqsimlab berishga ham alohida e'tibor bilan qaralgan. "Sho'roi Islomiya" jamiyatining dasturi yani maromnomasi haqida Abduxoliq Mingnorovning ilmiy tadqiqotlarida batafsil yozilib, milliy matbuot materiallari asosida ochib berilgan.

1917-yil iyun oyida Munavvar qori boshchiligidagi "Sho'roi Islomiya" tashkilotidan "Sho'roi Ulamo" ajralib chiqdi. Sherali Lapin uning Toshkent

sho'basiga asos soldi. 1917-yil 28-avgustda Qoqon shaxridagi Jome madrasasida "Sho'roi Ulamo" jamiyatining yig'ini bo'ldi.⁴⁰

"Sho'roi Ulamo" o'z dasturida islom dinining an'anaviy asoslari bo'yicha ish ko'rishni ma'lum qilsada, aslida Sherali Lapin boshchiligidagi Toshkent ulamolari avval rus monarxiyasi, so'ngra bolshevizm g'oyalari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtirishga behuda urindilar. O'z maqsadlari targ'iboti uchun "Sho'roi Ulamo" jamiyati "Al-izoh" jurnalini chiqara boshladi.⁴¹ Bu jurnalning birinchi soni 1917-yil 19-iyunda chiqdi.⁴²

"Sho'roi Ulamo" jamiyati tomonidan nashr ettirilgan "Al-izoh" jurnali hammasi bo'lib 31 soni nashr etilgan. 1918-yil may oyida Turkiston Sovet respublikasining XKS qarori bilan yopildi, unda jumladan shunday deyiladi: "Musulmoncha "Al-izoh" jurnali aholining bir qismini boshqasiga qarshi qo'ygan maqolalarini chop etgani uchun yopildi. Nashr etilgan va savdoda bo'lgan jurnal sonlari darhol musodara etilsin va milliy ishlar bo'yicha komissariatga topshirilsin".

Qoqonda tashkil etilgan "Ulamo" jamiyatning nizomi bilan tanishib chiqish shoroi ulamochilarning o'z oldiga qo'ygan vazifalari haqida aniq tasavvur beradi. Unda, jumladan, quyidagi maqsadlar qo'yiladi.

1. Musulmonlarni yagona tashkilotga birlashtirish uchun mutaraqqiyma'rifiy asoslarda milliy-diniy tafakkurni ommalashtirish va siyosiy harakatni shakllantirish.

2. Mullalar hamda musulmonlarning ahloqiy asoslarini vaqtli nashrlar hamda doimiy bosma organlar o'li bilan muhofaza qilish.

3. Musulmon fuqarolar orasida diniy zaminda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har-hil shikoyat va anglashilmovchiliklarni hal etish va tushuntirish.

⁴⁰ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi. -Toshkent: Universitet, 2002. 7-bet

⁴¹ Ulug' Turkiston. 1917-yil 24-dekabr soni.

⁴² Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. (1900-1924 yillarda). - Toshkent: Akademyanashr, 2011. 43-bet.

4. Madrasalarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va tartibga solish, o'qituvchi va o'quvchilarni muhofaza qilish, ularning taraqqiy etishi haqida g'amho'rlik ko'rsatish va muhtojlarga yordam berish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

5. Ilmiy-ma'rifiy faoliyatda o'zini ko'rsatgan munosib kishilardan o'quvchilar tanlash va ularni kuchli mutahassis qilib tayyorlash.⁴³

Sovet tarixshunosligida Turkistonda socialistik g'oyalar "mehnatkash musulmonlar" asosida g'oyalari qisqa muddatda keng ravishda qo'llab-quvvatlangan degan fikrlar uchraydi, zero islom va sosializm mafkurasida umumiyliklar ko'p emish. Biroq bugungi kunda shu narsa ayonki, sosialisrik qoidalar mahalliy aholi ongida qariyb yetib bormagan sosializmni Turkiston musulmonlariga singdirish sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng kuchli mafkuraviy tazyiq ostida olib borilda.

"Ulamo" jamiyatining yuqoridagi maromnomasi ham islom dinining qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda yani "fiqh" va shunga o'xshash huquqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan edi. Bu haqda tarixchi olim A'zamxo'jayev ham "Turkiston muhtoriyati" nomli kitobida takidlab o'tadi.⁴⁴

Toshkentda "Ulamo" jamiyati tomonidan uyushtirilgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi to'g'risida milliy matbuotda qanday yozilgani nihoyatda muhimdir. 1917-yil Turkiston va Qizog'iston musulmalarining qurultoyi bo'lib o'tdi (17-20 sentabr). Unda 500 ta vakil ishtirok etib "Ulamo" qurultoyida yer va suv to'g'risida quyidagi qarorlar qabul qilindi.

1. Turkistonning yer va suv Turkiston majlisi ixtiyorida bo'lsin.
2. Yer qo'mitalari ochilsin, burun yer va suvni sosializatsiya qilish to'xtatilsin.
3. Aholini ro'yxatga olish to'xtatilsin, kabi masalalar ko'rib chiqildi.

⁴³ Turkistonda avtanomiya oluv haqida / Ulug' Turkiston. 1917-yil 5-may soni.

⁴⁴ Azamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati. -Toshkent: Manaviyat, 2000. 73-bet.

Umuman olganda “Sho’roi Ulamo” jamiyati keyinroq yani 1917-yil 27-noyabrda tashkil topgan Turkiston muxtoriyatining Ta’sis sezdi keskin tortishuvlar bilan bo’layotgan bir paytda Sherali Lapin boshchiligidagi ulamochilar vakillari haydab chiqarilgan. Umuman, kurash ulamochilar bilan radikal unsurlar orasida borayotgan edi. Biroq, o’zaro kelishuvlardan so’ng bir to’xtamga kelinib, Sherali Lapin boshchiligidagi ulamochilar sazda qaytariladi.⁴⁵

1917-yil sentabrda “Sho’roi Ulamo”chilar jamiyati boshchilik qilgan Turkiston va Qozog’iston musulmonlari qurultoyida o’lka halqlarining milliy muxtoriyat, demokratiya, asriy ma’naviy va diniy qadriyatlar prinsiplari asosida o’z taqdirini o’zi belgilashning kengaytirilgan dasturi qabul qilindi.⁴⁶

Sovet adabiyotlarida Turkistondagi “inqilobiy” ko’tarilish 1917-yil sentabr oyida yuqori darajaga chiqdi, dep ko’p yozilgan.⁴⁷ Amma bu fikrlar o’zini oqlamaydi deb tarixchi olim Xaydarov M. bu paytda yevropalik aholi vakillari sarosimaga tushib, hokimiyatga intilishdi va ular kelajakdan havfsirab, yaqinlashib kelayotgan ocharchilik oldida jumbushga kelishdi deb o’z tadqiqotlarida ta’kidlab o’tadi.

Xulosa o’rnida shuni aytsak manbalarning tahlili shuni ko’rsatadiki, “Ulamo” jamiyatidan tashqari (“Sho’roi Islomiya” tashkilotlaridan), deyarli barcha milliy siyosiy jamiyatlar hamkorlikda ishlagan va milliy istiqlolga erishish yo’lida hamjihat bo’lganlar. Bu hamkorlik saylov jarayoni hamda Ta’sis majlisida bo’lgan munosabatlarda yaqqol o’z aksini topgan.

Milliy matbuot materiallari hamda sovet davlati davri yurasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning tanqidiy taxlili milliy siyosiy tashkilotlar haqida quyidagi hulosalarni chiqarishga asos bo’ladi:

⁴⁵ Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to’plam. -Toshkent: Universite, 1999. 155-bet

⁴⁶ Alimova D. Tarix shohidligi va saboqlari. -Toshkent: Sharq, 2001. 50-bet.

⁴⁷ Xaydarov M. O’zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanishi, bosqichlari va moxiyati. -Toshkent: ABU MATBUOT KONSALT, 2012. 32-bet.

-Birinchidan, milliy siyosiy jamiyatlar 1917-yil fevral voqealaridan keyin tuzilib, mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini taminladi va ularning siyosiy huquqlarini himoya qildi.

-Ikkinchidan, milliy siyosiy tashkilotlarning asosiy maqsadi o'lkada bosqichma-bosqich mustaqil va demokratik davlat qurish edi.

-Uchinchidan, milliy jamiyatlarning tuzilishi va ularning nizomlari ishlab chiqishda, ularning keyingi faoliyatida taraqqiy parvoz ziyolilar Rossiya va Kavkaz musulmonlari bilan aloqada bo'lganlar.

II.2. Turkiston muxtoriyati – milliy demokratik harakatlarning ifodasi.

Rossiyada 1917-yilning atigi 8 oyi ichida bo'lgan ikkita inqilob, yani fevral inqilobi oktabr to'ntarishi bo'lib o'tdi. Fevral inqilobidan 8 oy o'tib oktabr oyida davlat to'ntarishi bo'lib o'tdi. Turkiston o'lkasida 1917-yil mart oyidan noyabrgacha osuda kunlar deyarli bo'lmadi. Yuqoridagi bu ikki inqilobiy harakatlarning asosiy sababi butunrossiya sosial-iqtisodiy va davlat-siyosiy inqirozi ekanini tan olmaslik mumkin emas. Birgina 1917-yilning mart oyida to oktabr oyigacha 800 ta tashkilot yopildiki natijada ommaviy ishsizlik paydo bo'ldi.⁴⁸

Yuqoridagi bo'lib o'tgan ikki inqilobni kuzatib borayotgan Turkiston o'lkasidagi “Sho'roi Islomiya”, “Sho'roi Ulamo” va boshqa shuning singari demokratik tashkilotlar milliy masalani hal qilish bo'yicha sho'rolar hukumati, shaxsan bolsheviklar dohiysi V.I Lelin e'lon qilgan “Rossiya halqlari huquqlarining deklaratsiyasi” (1917-yil 2-noyabr) Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga” (1917-yil 22-noyabr) murojatnomasi kabi hujjatlariga asoslanib, milliy istiqlol muammosini o'zlari mustaqil hal qilishga kirishdilar. Bu borada 1917-yil 26-29-noyabrda Qoqonda o'z ishini olib borgan Turkiston o'lkasining musulmonlari favqulotda IV qurultoyi katta ahamiyatga ega bo'ldi.⁴⁹

Turkiston mahalliy aholisining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashga bo'lgan siyosiy irodasi, Sovet hokimiyatiga qarshi keskin noroziligi IV favqulotda Turkiston o'lkasi musulmonlari sezdi qarorlariga o'z aksini topdi. Musulmonlar qurultoyi ochilishi arafasida 25-noyabr kech soat yettida “Sho'roi Islomiya”ning Qoqondaga qarorgohida majlis bo'lib o'tdi. Unda mandat komissiyasi va hayatining taxminiy tarkibi masalalari ko'rib chiqildi. Bu majlisda quyidagi asosiy muammolarni muhokama qilishga qaror

⁴⁸ Xaydarov M. “O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi” shakllanishi, bosqichlari va mohiyati. -Toshkent: ABU MATBUOT KONSALT, 2012. 26-32-betlar.

⁴⁹ Jo'rayev X. Karimov Sh. O'zbekiston tarixi 2-tom. -Toshkent: Sharq, 2011. 42-bet.

qilindi. O'lkada boshqaruv tizimi va sovet hukumati bilan munosabatlar muassasasi; general Dutovning sovetlar bilan barcha munosabatlarni uzish va rejalashtirilayotgan aksilbolshevistik janubi-sharqiy ittifoq tarkibiga kirishi taklifiga nisbatan o'z munosabatini belgilash; Turkiston ijroiya qo'mitalariga saylovlar; Turkiston markaziy musulmonlar sho'rosini qayta saylash; Turkistonda qonunchilik hokimiyati yaratish; Turkistin ta'sis majlisini chaqirish va boshqalar ("Ulug' Turkiston" 1917-yil 8-dekabr).⁵⁰

1917-yil 26-noyabrda tashkiliy byuro a'zosi Mustafo Cho'qay sezdni ochiq deb e'lon qildi. Bu paytga kelib sezdda: Farg'onadan 150 kishi, Sirdaryodan 22 kishi, Samarqanddan 21 kishi, Kaspiy ortidan 1 kishi, Buhorodan 4 kishi delegat qatnashayotgan edi. Keyinchalik sezdi ishtirokchilari soni 250 kishiga yaqinlashgandi. Delegatlar orasida shahar Dumasi vakillari ham, tatarlarning Turkiston byurosidan ham, o'lka yaxudiy tashkiloti - Paoley Siondan ham shuningdek, mahalliy yahudiylardan ham vakillar ishtirok etdi.

Sovetlarning III o'lka sezdi shovinistik qarorlariga qarama-qarshi o'laroq musulmon qurultoyi o'z ishining barcha bosqichlarida chinakam baynalmilalchilik tamoyili, o'lkaning ko'p millatli, shu jumladan, yevropalik qismi aholini manfaatlarini hisobga olishdan kelib chiqdi. Bunday insonparvarlik yondashuvi IV musulmon qurultoyi ochilgan paytdanoq namoyon bo'ldi. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy sezding huquqiy asosga egaligi haqidagi nutqida shuni alohida takidladiki, sezdda Turkistonning yevropalik aholisi vakillari ishtirok etgani uchun ham sezdi qarorlari yanada obro'lidir. Undan keyin so'zga chiqqan Qoqon vakili Obidjon Mahmudov ham, "hayotga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas balki bilimdon va ishchan kishilarning tanlash asosida kiritish" zaruriyati haqida gapirdi. ("Ulug' Turkiston" 1917-yil 8-dekabr).⁵¹ Demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi

⁵⁰ Azamxo'jayev S. Turkiston muhtoriyati. -Toshkent: Manaviyat, 2000. 126-bet.

⁵¹ Katta miting / Ulug' turkiston. 1917-yil 10-dekabr soni.

vakillari ham qurultoyda teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. 27-noyabrda qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi davat etgan halqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash hususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muhtor deb e'lon qiladi”.⁵² Muzokaralardan so'ng 13 kishidan iborat hayot saylashga qaror qilindi. Sezd hayati ochiq ovoz berish yo'li bilan quyidagi tarkibda saylandi. Ubaydulla Xo'jayev, Mustafo Choqay, Yurali Agayev, Serikbay Akayev, Solomon Gersfeld, Obidjon Mahmudov, Islom Shoaxmedov, Kishchinboev, Jamol qozi, Abdul Badin, Abdurahmon O'razayev, Tiliyev, Karimboev. Uch kun mobaynida sezd ishtirokchilari Turkiston o'lkasining bo'lg'usi siyosiy tuzilishi haqidagi o'z qarorlarini belgilab olishdi, bular sezdda qabul qilingan hujjatlarda o'z aksini topdi. Xususan 27-noyabrda quyidagi mazmunda deklaratsiya qabul qilindi: “Yashasun Turkistin Muxtoriyati”.

Turkiston musulmonlarining to'rtinchi favqulotda qurultoyi Turkiston o'lkasida bo'lgan halqlarning hohishlari bo'yicha russiya inqilobi tarafidan berilgan asoslarga binoan federatsiya asosida qurilgan Rossiya jumhuriyati ila birlikda qolgani holda Turkistonni yerlik muhtoriyati, yani “teritorialnik avtonomiyalik” e'lon qiladilar.

Bu muhtoriyatning ne suratda vujudga kelmog'ini yaqin orada yig'iladigan umumturkiston halqining “Turkiston majlisi muassasasiga” topshiradi.

1917-yil 28-noyabr kech kuzda tashkil topgan davlatning nomi “Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo'ldi. Xokimiyat tarkibi esa quyidagicha shakllanishi lozim edi. Ta'sis sezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to'la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolarining soni ilgari

⁵² Eshov B. O'zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. 465-bet.

Butunrossiya Ta'sis Majlisiga Turkiston o'lkasidan saylangan nomzodlar sonidan qarab aniqlandi (32-kishi) ("El bayrog'i", 1917-yil, 22-dekabr).⁵³

Xalq majlisi tarkibi 54 nomzoddan iborat bo'lishi ko'rsatildi. Uning tarkibiga shaharlarning mahalliy boshqarmalaridan ham 4 vakil kiritildi. Xalq majlisidagi o'rinlarning uchdan bir qismi 18 kishi Yevropa millatiga mansub halq vakillariga ajratildi.⁵⁴ Bu hol muhtoriyatchilarning insof, diyonat va iymon asosida haqiqat, adolat va demokratiyaning yuksak cho'qqisida tuzib faoliyat ko'rsatganliklarining yorqin namunasidir. Chunki o'sha davrda Yevropa millatiga mansub aholi Turkiston o'lkasidagi umumiy aholi soniga nisbatan 4,5-5 foizni tashkil etgani holda Turkiston o'lkasi Ta'sis Majlisiga saylovlar haqidagi Nizom loyihasida ham nomzodlar umumiy soni 234 o'rin bo'lgani holda, uning ikki guruhga – musulmonlar va nomusulmonlar guruhiga ajralishi ham ana shu o'lchov va andozadan kelib kelib chiqqan edi. Nihoyat uzoq va bahsli tortishuvlardan so'ng Qurultoyda Muvaqqat hukumat saylandi.

Uning tarkibiga 8 kishi kiritildi:

1. Muhammadjon Tinishboyev – bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi Muvaqqat hukumati Turkiston komitetining a'zosi, temir yo'l muhandisi.

2. Islom Sulton o'g'li Shoaxmedov – bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho'gayev – Turkiston Musulmonlari Markaziy Sho'rosi raisi, huquqshunos.

4. Ubaydulla Xo'jayev – harbiy vazir, Butunrossiya Musulmonlari kengashi Markaziy Qo'mita a'zosi, huquqshunos.

5. Yurali Agaev – yer va suv boyliklari vaziri, agranom.

⁵³ Axmedov S. Rajabov Q. Jadidchilik O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., 2002. 23-bet.

⁵⁴ Ko'rsatilgan asar. 44-bet.

6. Obidjon Maxmudov – oziq-ovqat vaziri, Qoqon shahar dumasining rais o'rinbosari, tog'-kon sanoati mutahasisi.

7. Abdurahmon O'razayev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld- moliya vaziri, huquqshunos.

Ayni paytda, Muvaqqat hukumat tarkibiga nima uchun 12 emas, balki 8 kishi kirdi. Chunki, yana 4 kishi – yevropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach qayd etilishi ko'zda tutilgan edi ("Ulug' Turkiston", 1917-yil 8-dekabr).⁵⁵

Yosh milliy demokratik davlatning hukumati bilan bir qatorda Milliy Majlis tarkibi ham aniqlandi, uning tarkibiga quyidagilar kirdi: Ubaydulla Xo'jayev, Mustafo Cho'gayev, Toshpo'lotbek Norbo'tabekov, Sadriddin Sharifxo'jayev, Qo'ng'irxo'ja Hojinov, Ismatulla Ubaydullin, Saidnosir Mirjalolov, Sherali Lapin, Said Zafarboy Saidov, Islom Sultono'g'li Shoaxmedov, Abdurahmonbek O'rozaev, Mirodil Mirzaahmedov, Toshxo'ja Ashurxo'jayev, Abdulqodir Qushbegiyev, Obidjon Mahmudov, Jamshidboy Qorabekov, Salomon Abramovich Gersfeld, Abdusamad Abdusalimov, Ubaydulla Derbisalin, Muso Akchurin, Mustafo Mansurov, Maxmudxo'ja Behbudiy, Ibrohim Dalshin, MuhammadjonTinishboyev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Kamol Qori Raxmonberdiyev, Alixonto'ra Shokirxonto'rayev, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov va boshqalar saylandilar.

"Turkiston Muxtoriyati" tashkil topganligini "Ulug' Turkiston" gazetasi atroflicha baholadi. Yangi tuzilgan bu milliy demokratik davlatni Turkiston halqi tomonidan ijobiy munosabat bilan kutib olindi.

Umummusulmon sezdi tomonidan Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi o'lka bo'ylab katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi.

⁵⁵ Abdurauf Fitrat Muxtoriyat / Xurriyat 1917-yil 5-dekabr soni.

1-dekabrda Namangan uyezdida 10 mingga yaqin kishi ishtirok etgan namoyish bo'lib o'tdi. "Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!" deb yozilgan bayroqlar namoyishchilari qo'lida hilpirar edi. ("Ulug' Turkiston", 1917-yil 13-dekabr).

6-dekabrda Jalalobod volostidagi Xonobod qishlog'ida Muxtoriyat o'znatilishi munosabati bilan namoyish bo'lib o'tdi. Bu yig'ilishda yangi hukumatga yordam uchun 500 so'm miqdorda iona puli yig'ildi. ("Ulug' Turkiston", 1917-yil 20-dekabr).

7-dekabrda Qoqon shaxrida 42 jamoat tashkilotlari vakillarining qo'shma majlisida ko'p millionli Turkiston halqiga samimiy tabrik yo'llandi. ("Ulug' Turkiston", 1917-yil 13-dekabr).

Samarqandda bo'lib o'tgan viloyat soveti sezdida Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashga qaror qilishdi va halq majlisi tarkibiga 5 ta yangi vakil saylandi. ("Ulug' Turkiston", 1918-yil 7-yanvar).

Kaspiyorti viloyatida ham sezd chaqirilib, Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashga qaror qilindi.

Milliy davlatchilikning qaror topishini jo'shqin muborakbod etib, matbuotda taniqli, ma'rifatparvarlar, diniy, jamoat va siyosiy arboblardan birin-ketin chiqishlar qilib Muxtoriyatni tabrikladilar.

1917-yil 6-dekabrda Toshkentdagi Jome masjidida o'tkazilgan namoyishda jami 60 ming kishi qatnashdi. "Ulug' Turkiston" gazetasida yozilishicha, "Masjidning ichki sahni va tomlari odam bilan liq to'lgan edi". Munavvar qori bilan Sherali Lapin uning muovinlari edi.

Namoyishda so'zga chiqqan Miyon Buzruk, Munavvar qori, Mulla Odil, Sherali Lapin va boshqalar Sovet hokimiyatiga bo'lgan munosabatlarini ham bildirishdi. Gazetaning yozishicha, Xalq Komissarlari Sovetining shahar Dumasini tarqatib yuborish haqidagi buyrug'ini "bugungi kunda mutlaqo mumkin bo'lmagan hodisa", deb baholandi.

Namoyish ishtirokchilari Turkiston Muxtoriyatiga qarshi chiqqan va musulmon boylarida mavjud bo'lgan manufakturani musodara qilishni talab qilgan musulmon ishchilari va ularning kasaba uyushmasini tanqiq qildilar.

Namoyish yakunida bir ovozdan quyidagi qaror qabul qilindi. Shuni imon etgan holda biz o'lkadagi hamma musulmonlarni Muxtoriyatli Turkiston hukumati atrofida jipslashib, hozirgi o'lka idorasi boshida bo'lib turgan muvaqqat tashkilotlar bilan qanday bo'lmasin dushmanlarcha muomala qiluvdan saqlanishga davat etamiz.

Turkiston halqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917-yil 13-dekabrda bo'lib o'tgan fojiali voqealar tub burilish nuqtasi bo'ldi. Shu kunni inqilobdan so'ng Turkiston zaminida ilk marta halq qoni to'kildi.

M.Tinishboev, S.Gersfeld, I.Shoaxmedov, A.O'razaev va yana bir qator hukumat a'zolari imzo chekkan "Murojatnomada" sezid qarorlari va hukumatning yaqin ish rejalari hususidagi ma'lumotlar bilan birga, butun Turkiston ahliga chaqiriq ham bor edi. Unda jumladan quyidagilar qayd etildi: "Turkistonning barcha fuqarolari – musulmonlar, ruslar, yahudiylar, soldatlar va dehqonlar o'kada yashab turgan barcha elatlar va halqlarning, shahar va zemstvo boshqarmalari, siyosiy, ijtimoiy va kasaba uyushmalari, barcha davlat, jamoat va hususiy muassasalar Turkiston halq hokimiyati oldida birlashib uning zimmasiga yuklangan vazifalarni hayotga joriy etishda ko'mak berishga chaqiradi".

Toshsovetga muholifatda bo'gan kuch – Toshkent shahar dumasini ham unga katta tashvish bilan tayyorlanmoqda edi. U 9-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishiga bag'ishlab o'kaziladigan namoyish munosabati bilan shaharliklarga murojaatnoma qabul qiladi.

13-dekabr kuni ertalab soat beshda ehtimoldagi tartibsizliklarni bartaraf etish maqsadida harbiy qismlar o'rda yaqinida Eski shaharga o'tiladigan yo'llarni berkitdi. Soat 12 larda ko'p ming kishilik yig'in to'plandi.

“Ulug’ Turkiston” gazetasi bundan keyingi voqealar haqida shunday yozadi: “Namoyishga musulmonlardan tashqari ruslar, yahudiylar, armanlar, shuningdek bolsheviklardan bosh turli ijtimoiy siyosiy tashkilotlarning ham chiqishdi”. U yig’ilganlarni muborak kun bilan tabrikladi.

15-dekabr kuni Turkiston Muxtoriyati yo’lboshchilari bu voqealar yuzasidan o’lkaning barcha fuqarolariga mahsus murojaatnoma bilan chiqishdi. Unda jumladan quyidagilar: “Biz Xalq Majlisi va Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat hukumatining a’zolari chin yurakdan taassuf bildiramiz va turkistonlik musulmonlarning ezgu his-tuyg’ulari haqoratlovchi bu voqealarga qarshi chiqamiz. Bolsheviklarning ikkiyuzlamachilik siyosati Turkistonda muhtoriyat uchun milliy harakatning rahbarlariga yaxshi ma’lum edi. Shu jihatdan U.Xo’jayevning IV musulmon sezdi ish kunlaridagi nutqi diqqatga sazovordir”.

Bu sezdi 1917-yil 25-dekabrda Qoqonda ochildi. Unda Turkistonda jamiyat hokimiyat va boshqaruv shaklini belgilash ko’zda tutildi. Ma’lumotlarga ko’ra sezdda 200ga yaqin vakil qatnashdi.⁵⁶ Sezdi ochilishi Turkiston o’lkasi harbiy sho’rosi rahbari Orif Klevlev qutladi.

Sezdi qatnashchilari 13-dekabrda halok bo’lganlar hotirasi uchun Qur’on tilovat qildilar. 1917-yil 27-dekabr kuni jo’natilgan telegrammada shunday deyiladi: “Xalq komissarlari Soveti e’lon qilgan shiorlar Turkistonda joriy etilmoqda”.

Markaziy sovet hukumatida millatlar ishlari bo’yicha komissar bo’lgan Stalin 1918-yil 5-yanvarda bu talab hatida Qoqondagi Turkiston hukumatiga bergan javobda: “Toshkentdagi komissariyati Sovetini yo’q etish haqida Petrografda murojaat qilishning ehtiyoj yo’q, agar komissariyati istamasangiz, uni kuch bilan yo’qota olasiz”, - deb yozadi.

⁵⁶ Munavvarqori Abdurashidxonov hotiralaridan. Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev. -Toshkent: Sharq, 2001. 12-bet.

Aynan shu paytda, 1918-yil yanvari ohirlari – fevral boshlarida sovet hokimiyati tomonidan kuchli bosim ta'sirida Muxtoriyat tarafdorlari hatti-harakatlari hususiyati shahar soveti tuzilmalari bilan tinch-totuv yashashdan harbiy qarama-qarshilikka borishga tomon o'zgara boshladi. Qoqon sovdepi muhtoriyatchilarning qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rayotgani belgilarini qayd etdi. Bu qarama-qarshilik ochig'dan-ochiq jangovor harakatlarga aylana boshladi. 29-yanvardan 30-yanvarga o'tar kechasi sovet hokimiyati tomonida turgan harbiy qismlar Qoqondagi muhtor respublika hukumat bilan kurashni boshlab, mohiyatan Rossiyada birinchi bo'lib fuqarolar urushini boshladi.⁵⁷

Ayni paytda, Turkiston o'lkasi XKS Toshkent, Namangan, Samarqanddan shahar Dumalarini tarqatdi. Sobiq general-gubernator kanselratsiyasini tugatdi.

Muhtoriyatchilar 11-fevraldan 12-fevralga o'tar kechasi oq gvardiyachilar yordamida Qoqon qal'asiga hujum uyushtirdi. Ko'plab joylar qo'lga olindi, telefon stansiyalar qo'lga olindi. Ushbu sharoitda Turkiston Muxtoriyati rahbarlari Revkomni muzokara olib borishga taklif etdi. Muxtoriyatchilar shartlari quyidagicha edi: shaharni birgalikda boshqaruvchi organ tuzish, albatta, tarkibida muhtoriyatchilar vakillari ortiq bo'lishi kerak; qal'ani bu organ nazoratiga topshirish militsiyadan boshqa hammani qurolsizlantirish, o'lka hukumatining shariatga zid dekretlarini man etish va boshqalar. 17-18-fevralda muzokaralar davom etdi. Shu chog'da 18-fevralda "Ulamo" jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish yuz berdi va buning natijasida Mustafo Cho'gayev boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'darildi. Shundan keyin boshqaruv Qoqon militsiyasi boshlig'i kichik Ergashgao'tdi. Bu to'ntarishdan so'ng, 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi Toshkentdan Turkiston o'lkasi harbiy komissasi Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshalon qo'shin yetib kela boshladi.

⁵⁷ Azamxo'jayev S. Turkiston muhtoriyati . -Toshkent: Manaviyat, 2000. 146-bet.

Ertasi kuni – 20-fevral tongida vayron etilgan shaharga piyoda qo'shinlar va dashnoqlarning jangovor qismlari kirdi. O'sha kunlarda qamoqqa olishlar ham boshlandi. Bunda "Muvaqqat hukumatiga biron bir aloqasi yo'q borlarni qamoqqa olishdi".

Turkiston Muxtoriyati hukumati 19-fevralda ag'darildi, biroq shaharni talash davom etdi. Mavjud bo'gan uzuq-yuluq ma'lumotlardan shu narsa anglandiki, Muhtoriyat hukumati a'zolaridan Hidoyatbek Yurali Agayev, Murodil Mirzaaxmedovlar qatl etilgan, tasodifan omon qolganlari esa qamoqqa olingan. Mustafo Cho'qay qo'lga tushmasdan qochishga ulgirib o'sha yillari mustaqil bo'lgan Gruziyaga yetib oladi va Kavkaz halqlarining demokratik harakatiga qo'shiladi.

Nosirxonto'ra bolsheviklar tomonidan Namanganda, S.Gersfeld Samarqandda, Obidjon Maxmudov Buhoroda qo'lga olinadi.⁵⁸ Qoqon aholisi vahimaga tushgan holda shaharni tark eta boshladi. Qoqon uch kun o't ichida qoldi. Qo'qonda dahshatli manzara sodir bo'ldi.hamma yoqda o'liklar yotibti.ayrim ma'lumotlarga ko'ra, shu fojeali voqealar oqibatida 10 000 dan ziyod kishi halok bo'ldi. 1918 – yili Qo'qon shahriga kelgan ingliz kapitani A. Brunning yozishicha, shaharni bosib olishda ishtirok etgan nemis, avstriyalik, venger asirlaridan yollangan saldatlar 100 000 so'mdan ortiq pulni o'marishgan.⁵⁹

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Turkiston Muhtoriyati tor – mor etilgach, 1917 – yil dekabrda qozoq milliy demakratlari tomonidan Orenburgda tashkil etilgan "Alash – O'rda avtonomiyasi hukumatining taqdiri ham 1920 – yil may oyida shunday bo'ldi."⁶⁰

Turkiston Muhtoriyati hukumatining ag'darilishi turkistonliklar tarafidan Rossiyaning o'lkaga nisbatan tajovuzko'rona rejalari borligining yangi dalili sifatida qabul qilindi va ular o'z Vatanlarini bosqinchilardan himoya qilish

⁵⁸ Mingnorov A.T. Turkistonda milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. –T., 2000. 126-bet.

⁵⁹ Musulmon va ishchi dexqonlar sezdi. / Ulug' Turkiston. 1918-yil 21-yanvar soni.

⁶⁰ Azamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. 82-83-betlar.

uchun qo'lda qurol bilan ko'tarildilar. Shundan keyin bu yong'in, bu olovlar qo'ridan halq qahr – g'azabi, bosqinchilarga nafrati, ko'ngilda tug'ilgan o'chi, sifatida Sovet tarixi fanida “bosmachilik” deb atalgan harakat kurash maydoniga chiqdi.

Bu bilan Turkistonda ommaviy antisovet harakati boshlandi. Milliy ozodlik kurashi an'analari davomini o'zida namoyon etgan mazkur harakatning hususiyati o'sha davrdagi “Turkistonning Rossiyadan ozodligi uchun”, “Zolimlarsiz Turkiston uchun”, “Turkiston turkistonliklar uchun” kabi siyosiy talablarida to'liq namoyon bo'lib o'z aksini topdi.

II.3. Milliy matbuotda milliy-demokratik davlatchilikni tuzish va uni mustahkamlash masalalarining yoritilishi.

1917-yil fevral oyidan boshlab Rossiyaning milliy o'lkalarida, shu jumladan Turkiston o'lkasida ham "muxtoriyat" g'oyasi paydo bo'ldi. Bu iboraning yuzaga kelishini o'sha davrdagi milliy matbuot materiallari "Xurriyat"ning e'lon qilinishiga bog'lab ko'rsatila boshlandi. "Xurriyat"ning e'lon qilinishi deb, milliy matbuot materiallarida hamda milliy ziyolilarning maqolalarida. "Fevral inqilobi" va u kiritgan o'zgarishlar nazarda tutilgan.⁶¹

Ilgarigi rus hukumatiga bosh egish va unga o'z qismatini topshirib qo'yishdan boshqa chorasi qolmagan xalqlar endi. O'zlariga muxtoriyat olishga kirishdilar va bu yo'lda yakdil qaror qabil qildilar. Shu munosabat bilan "Turkiston musulmonlari Rossiyadan to'liq xolda mustaqillik talab qilgan edimi yoki yo'q?"-degan savolga javob berishga to'g'ri keladi.

Bu savolga javob berish uchun o'sha davrdagi milliy matbuot sahifalaridan joy olgan Turkiston musulmonlarining qurultoylari, milliy demokratik ziyolilarning maqolalariga murojaat qilamiz.

Turkiston muxtoriyati g'oyasi va uning yuzaga kelishi Turkistonda taraqqiyparvar demokratik ziyolilarning tashabbusi va ayni paytda Toshkent "Sho'roi Islomiya" jamiyatining faoliyati bilan bog'likdir. Bu borada tatar ziyolilaridan Nushirvon Yovushev maqolasida Turkistonning muxtoriyati olishi to'g'risidagi fikrlari juda qimmatlidir. U shunday yozadi: "Rossiyada 30 million turk-tatar xalqlari bor. Ular madaniy jihatdan bir-biriga juda yaqin. Turkiston esa turklarning asl vatanidir. Shu sababli Turkistonda avtonomiya berilgan taqdirda Rossiyadagi boshqa turklar Turkistonli qardoshlariga yordamlashadilar."⁶²

Islom Shoaxmedov tomonidan Turkiston musulmonlarining II qurultoyida muhokama qilish uchun tayyorlangan "Turkiston federasiya" loyixasining ham

⁶¹ Mingnorov A. Turkistondagi milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. –T., 2000. 120-bet.

⁶² Turkistonga avtonomiya oluv xaqida / Ulug' Turkiston. 1917-yil. 5 may soni.

yuqoridagi savolga javob berish uchun katta ahamiyati bor. Loyixa “Ulug’ Turkiston” gazetasining 1917-yil 7-10 sentabr kuni sonlarida nashr qilingan.⁶³ Turkiston federasiyasi loyixasi 27-moddadan iborat bo’lib, unda muxtoriyat hukumatining barcha javxalarini qamrab olgan. Uning moddalarida Turkiston muxtoriyatining ichki va tashqi ishlari, shuningdek, moliya, iqtisod va savdo sohasidagi ishlari nazarda tutilgan. Bu loyixani Markaziy sho’roning muxtoriyat to’g’risidagi dasturi sifatida talqin etish mumkin.

“Ulamo” jamiyati tomonidan 17-20 sentabr kunlari bo’lib o’tgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi ham katta ahamiyatga egadir. “Ulamo” jamiyati ham mazkur qurultoyda “federativ-demokratik respublika” nomi ostida davlat e’lon etish haqida qaror qabul qildi. Shu qarorda binoan Turkiston o’zining mustaqil milliy armiya va milisiyasini tuzish nazarda tutilgan edi.⁶⁴

Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi ham bo’lib o’tadi. Xalq majlisi a’zolarining uchdan bir qismi yevropaliklardan tegdi. Ular quyidagi jamiyatlardan o’tgan vakillar edilar: “Temir yo’l ittifoqi”, “Pochta telegraf ittifoqi”, “Sosial revolyutsionerlar”.

Muxtoriatni e’lon qilinishini Turkistondagi barcha mahalliy aholi, jumladan, tatar jadidlari ham shodlik bilan kutib oldi. Andijon tatarlari 3-4 dekabr kunlari muxtoriyat bayramini o’tkazdilar. 3-dekabrda eski shaxarlik aholi Rossiya va Kavkazdan kelgan musulmonlar bilan birgalikda musiqa sadolari bilan yangi shaharga keldilar. 4-dekabrda esa Ittifoq jamiyati idorasida maktab bolalari bayram uyushtirildilar.

Toshkentdagi namoyishni “Ulug’ Turkiston” gazetasi quyidagicha sharxlaydi: Toshkentda 6-dekabr kuni jome masjidida muxtoriyat e’lon qilinganligi va Toshkent shahar dumasining bolsheviklar tomonidan tarqatilganligi sababli katta namoyish o’tkazildi. Namoyishda 60 ming kishi

⁶³ Mingnorov A. Turkistondagi milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. –T., 2000. 121-bet.

⁶⁴ “Ulamo” sardining qarorlari / Ulug’ Turkiston. 1917-yil. 30-sentabr soni.

qatnashib, bu yig'inda Saidg'ani Maxdum domla zais, Munavvar qori Abdurashidxonov bilan Sherali Lapin unga yordamchi, Pirmuhammad Olim esa sarkotib etib saylandi. Shundan keyin namoyishda yig'ilgan 60 ming kishilik halq nomidan Turkiston muvaqqat hukumatidan boshqa hech qanday hokimiyatga bo'ysunmaslik haqida qaror qabul qildilar. Xalq namoyishi ertalab soat 9⁰⁰ da boshlanib, kech soat 16⁰⁰ gacha davom etdi.⁶⁵

Toshkent shaxrida bo'lgani kabi 6-dekabrda Jalolobod volostida Xonobod qishlog'ida Muxtoriyat o'rnatilishi munosabati bilan namoyish bo'lib o'tadi. Namoyishda Abdulla Eshon va Huseyn Validiy nutq so'zlashdi. Bu erda yangi hukumatga yordam uchun 500 so'm miqdorida iona puli yig'ildi. (Ulug' Turkiston, 1917, 20-dekabr)⁶⁶

Turkiston muxtoriyati hukumati faoliyatini butun xalqqa yoyish uchun "El bayrog'i", "Birlik tug'i", "Свободный Туркестан", "Известия Временного Правительства Автономного Туркестана", kabi hukumat gazetolari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Bu gazetalar faoliyatini yo'lga qo'yishda Obidjon Maxmudov, Sultonbek Xo'janov, Sanjar Asfandiyorov, Bulat Soliyev, Vadim Chaygin kabi muharrir va noshirlar muhim ro'l o'ynashdi. Avval chiqayotgan "Ulug' Turkiston" gazetasi ham o'z sahifalarida Muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin bera boshladi. Noshir ishlovni yaxshilash uchun O.Maxmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga topshirilgan.⁶⁷ "Ulug' Turkiston" gazetasi eski o'zbek yozuvida va rus tillarida ham maqolalarni e'lon qilgan.

Tarixchi olim A.Mingnorov o'z disertatsion tadqiqotida "Ulug' Turkiston" gazetasi shunday dep yozgan edi deb ta'kidlab o'tdi. "Ulamo" jamiyati bilan sosial-revolyusionerlar bolsheviklarning zo'ravonliklariga qarshi norozilik bildirdilar. Milliy matbuot sahifalarida 13-oktabrda Toshkent

⁶⁵ Katta miting / Ulug' Turkiston. 1917-yil.10-dekabr soni.

⁶⁶ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi. –Toshkent: Universitet, 2000. 24-bet.

⁶⁷ Xolboyev S. Jadidlarning mustamlaka sovet tuzumi davridagi faoliyati va taqdiri (1917-1930 yillar). Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. -Toshkent: Universitet. 1999. 204-bet.

shaxrida yana katta namoyish bo'lishi to'g'risida habar e'lon qilingan. Bu namoyishda musulmonlar bilan birgalikda rus yaxudiy va arman millati vakillari ham qatnashdilar. Namoyishga uezdlardan 100 ming otliq va piyoda aholi kelganligini aytib o'tadi. Namoyishga 200 ming nafar aholi qizil, ko'k va yashil rangli 100ga yaqin bayroq ko'targan edilar. Ushbu kun "Ittifoq" jamiyati, "Turk adam Markaziyati" firqasi bilan birgalikda Turk marshlari jarangladi. Maktab va madrasa o'quvchilari turli hil milliy shiorlar tayyorlagan edilar. Umuman, namoyish tartibli o'tdi. Ruslar orasidan miting prizidiumiga Shors saylandi. Bu namoyishda Toshkent "Ulamo" jamiyati a'zolari ham qo'shildilar. Toshpo'latbek Norbo'tabekov yig'ilgan yevropaliklarga ruscha nutq so'zlab, hukumat nomidan tabrik qildi.

13-dekabr kuni uyushtirilgan namoyish payg'ambarimizning tavallud topgan kunlari va muxtoriyat elon qilinganligi munosabati bilan bayram qilingan edi. Namoyishdan bir necha kun avval milliy matbuotda 13-dekabrda katta miting o'tkazilishi to'g'risidagi habarlar tarqatilgandan keyin bolsheviklar yangi shahar qismida halq orasida ig'vo tarqalib, musulmonlar namoyish baxonasida butun evropalik aholini o'ldirar ekanlar, degan bo'xton uyushtirdilar va bu bo'xton 13-dekabr kuni namoyishni ma'lum manoda o'zgartirdi ham.⁶⁸

Turkiston muxtoriyati bilan bog'liq anjuman va namoyishlar haqida so'z borar ekan yana bir anjuman to'g'risida to'xtalib o'tish zarur. 25-oktabrda Qoqonda musulmon sho'rosi tomonidan musulmon askar va ishchilarning favqulotda qurultoyi ochildi. Bu anjuman to'g'risida "El bayrog'i", "Xurriyat", "Ulug'-Turkiston" gazetalari va "Ishchilar dunyosi" jurnalida habarlar berilgan bu qurultoyda ushbu masalalar ko'rildi: 1. Butun Turkiston musulmon askar va ishchilari markaziy qo'mitasini tuzish; 2. Turkiston ma'muriyati va muvaqqat hukumatiga munosabat; 3. Turkiston ta'sis majlisi va evropaliklar masalasi.⁶⁹

⁶⁸ Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918-yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. –T., 2002. 27-bet.

⁶⁹ Musulmon va ishchi dehqonlar sezdi. / Ulug' turkiston 1918-yil. 4-yanvar soni.

“Ulug’ Turkiston” gazetasi bu haqda shunday yozadi: Bu qurultoyda Turkistondagi hokimiyat masalasi hal bo’layotganligida har kim ham katta ahamiyat berib, natijasini kutmoqda. Shu sababli bu qurultoyda bolsheviklar ham ishtirok etdilar. Bolsheviklar shu kunga qadar muxtoriyat hukumatini “boylarniki” dep tan olmagan bo’lsalar, endi bu baxonaga o’rin qolmadi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilinsa, bir qancha fikrlar oydinlashadi. Bu ma’lumotlarga muxtoriyatni e’lon qilgan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi va uning qonunlarini bolsheviklar avvaliga tan olmagan bo’lsalar ham, biroq keyinchalik yakkalanib qolayotganligini sezib, e’tirof etganliklari to’g’risida milliy matbuotda ma’lumotlar bor.

Bu anjumanda bolsheviklar tomonidan tarqatilgan turli bo’xton ig’volarga hotima berildi. Musulmon hukumatini siyosiy doirada manaviy jihatdan mustahkamlandi.

Milliy demokratik ziyolilarning muxtoriyatga oid maqolalari ham biz uchun qimmatlidir. “Ulug’ Turkiston” gazetasida Islom Shoaxmedovning “Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy avtonomiya” nomli maqolasi nashr etilgan.

Abdurauf Fitrat o’z maqolasida “Biz ellik yildan beri ezildik. Tilimiz, dilimiz, insoniy fazilatlarimiz oyoq osti qilindi. Ongimiz zaharlandi lekin biz imonimizni saqladik. Mana muxtariyat ham e’lon qilindi. Uni moddiy, ma’naviy va siyosiy (harbiy) jihatdan qo’llab turish kerak. Bu albatta o’zaro ittifoqqa bog’liqdir”⁷⁰ deydi.

Ziyolilardan Muxtor Bakirovning “Ulug’ Turkiston” gazetasida muxtoriyatga oid 2 ta maqolasi berilgan. Birinchisi, “Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar” deb ataladi. Muxtor Bakirov o’zining ikkinchi maqolasida shunday so’zlarni aytib o’tadi: “Ezgu turk yurtini qutqarmoq uchun albatta kuch kerakdir. Bu kuch hammaga ma’lum qurol, yani harbiy kuchdir.

⁷⁰ Abdurauf Fitrat. Muhtoriyat . / Xurriyat, 1917-yil. 5-dekabr soni.

Muvaqqat hukumat tez orada milliy askar tuzishi kerak”⁷¹, deb u muxtoriyat polkini tashkil qilish fikrini ilgari suradi.

Turkiston muxtoriyati hukumatining, umuman musulmonlarning muxtoriyat e’lon qilgandan keyin ro’y bergan sharoitni qiyoslagan holda u qanday mavqega ega bulganligini Orif Klevlevning Petrogratga yuborgan telegrammasidan ham ko’rish mumkin. Unda shunday satrlar bor: “Turkiston halqi bir ovozdan Turkiston muxtoriyatini e’lon qilib, o’kaning boshqaruv usulini Turkiston ta’sis majlisi tomonidan ishlab chiqishni taklif qildi. Ruslar va evropaliklar o’lkaning 2 foizini tashkil qilsada xalq sho’ro (millat majlisi MA)sida saylanganlarning 33 foizini egalladi. Rossiya komissarlari tomonidan Turkiston muxtoriyatini tugatish yo’lida tadbirlar qilmoqda. Musulmon ishchi va askarlarning I qurultoyi qarorlarini ma’lum qilib, sizni Rossiya demokratik jumhuriyatining oliy idorasi ekanligingizdan boshqaruvni Toshkentdagi komissarlar sovetidan Turkiston muxtoriyati hukumatiga topshirishga buyruq berishingizni iltimos qilaman. Toki orada tortishuv boshlanib, Turkiston mamlakati halokatga duchor bo’lmasin. Xarbiy sho’ro raisi Orif Klevlev, Qoqon 1917-yil 26-dekabr”.⁷²

Milliy ziyolilarning maqolalari va Turkiston muxtoriyatiga oid boshqa barcha materiallarga asoslangan holda shuni aytish kerakki muxtoriyat e’lon qilinishi bilan barcha musulmonlar uni saqlash uchun doim shay turishga chaqirgan. Milliy matbuot materiallarining 1917-yil iyul-oktyabr oylaridagi voqealari taxlili. Turkiston musulmonlarining istiqlolga etishish harakatining eng yuksak cho’qqisi, ekanligini ko’rsatdi.

Sentabr oyidagi ikki musulmon qurultoylarining qarorlari, noyabr oyidagi Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi muxtoriyatni e’lon qilinishi bilan yakunlandi. Ayniqsa dekabr oyida bo’lib o’tgan Turkiston ishchi va askarlarining I qurultoyi Turkistondagi barcha siyosiy jamiyatlarning

⁷¹ Ulug’ Turkiston / 1917-yil. 24-dekabr soni.

⁷² Mingnorov A. Turkistondagi milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. T., 2000. 133-bet.

muxtoriyat hukumatiga bo'lgan munosabatlarni yanada oydinlashtirdi va siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Avvaliga muxtoriyatni tan olmagan bolsheviklar, aynan shu anjumanda yakkalanib qolganlikdan ko'pchilik fikriga qo'shilishga majbur bo'ldilar.

Turkistondagi bolsheviklar halqni mustaqillik uchun kurashdan chalg'itish maqsadida turli yo'llarni o'ylab topdilar. Ular o'zlari e'lon qilgan demokratik erkinliklar va shiorlarga zid tarzda sovet matbuotidan tashqari barcha nashrlarni yopib qo'dilar. 1918-yil 29-martda Turkistondagi barcha tipografik va litografik mulklar sovet hokimiyati tomonidan musodara qilindi. Taraqqiyparvarlar va ulamolarning o'zbek tilida chiqayotgan milliy gazeta va jurnallari yopildi. Ana shunday gazetalaridan biri "Ulug' Turkiston" gazetasi bo'lib uning sahifalarida muxtoriyat va milliy mustaqillikka bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilingan edi. Gazeta o'z paytida (1917-yil noyabr – 1918-yil fevral) Turkiston Muxtoriyat hukumati faoliyatini yoritishga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, u muxtoriyat hukumatining rasmiy nashrlari bilan birgalikda bu sohada katta ishlarni amalga oshirdi.

"Ulug' Turkiston" gazetasi o'zining oxirgi sonlaridan birida bolsheviklarning milliy gazetalariga nisbatan munosabatini qoralab quyidagicha yozgan edi: "Bular (bolsheviklar) har hil milliy masalalar qo'ydirib, halqning diyonatini yo'q narsalar bilan jalb qilib, umuminsoniyat fikridan g'aflat etadi. O'zlari millatlarni aldash uchun hech bir millatchi o'ylab chiqarmaydigan fahsh yo'llar o'ylab chiqaradilar".⁷³

Milliy ziyolilar muxtoriyat hukumatini e'lon qilish musulmonlarining to'liq ozod bo'ldi degan gap emas, balki uni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash va bolsheviklarning tajovuzlaridan saqlash kerakligi to'g'risida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarning guvohlik berishicha Turkiston

⁷³ Xaydarov M. O'zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanish bosqichlari va mohiyati. -Toshkent: ABU MATBUOT KONSALT, 2012. 52-53-betlar.

bolsheviklari to 1917-yilning noyabr oyigacha katta hal qiluvchi kuchga ega bo'lishmagan. Ular faqat kelishuvchilik yo'lini tutishdi.

Bolsheviklar bosqinchilik orqali hokimiyat tepasiga kelgandan keyin, faoliyatning dastlabki kunidan boshlab o'ta adolatsiz siyosat olib borish bilan birga, bosqinchilik, talonchilik bilan ham shug'ullanishgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 1917-yil 25-oktabrda Rossiyadagi davlat to'ntarishidan keyin, bolsheviklar Turkistonda ham maqsadlarini qurol kuchi bilan amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Rossiyadagi voqealardan keyin bolsheviklarning harakatlari yanada tezlashdi. Talonchilik, bosqinchilik avj olib ketdi. Turkiston muxtoriyati ag'darib tashlandi. Musulmonlarning turmush darajasi inqirozli holatga kelib qoldi. Xalqning ruslarga nisbatan qaxr g'azabini oshirib yubordi. Agar 1917-1918-yillardagi milliy matbuot materiallarini tahlil qilinsa, shu yillardagi Turkistondagi siyosiy jarayonlarini to'liq o'rganish mumkin. Ayniqsa, bolsheviklar tomonidan musulmonlarga qilgan turli hil adolatsizliklar ma'lum bo'ladi. Bu esa ajdodlarimizning bolsheviklarga qarshi istiqlolchilik harakatining yuzaga kelishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni beradi.

XULOSA

O'zbek halqining sovet davrida kechirgan 75 yillik tarixi allaqachon o'tmishga aylandi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va jamiyatni demokratlashtirish jarayoni qizg'in kechmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshayotgan ulkan o'zgarishlar fikrimizning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi (28.01.2005yil) dagi nutqida inqiloblar va uning oqibatlarini quyidagicha ko'rsatib o'tdi: "Malumki, inqiloblar, odatda, hamma davrlarda ham zo'ravonlik, qon to'kish va ajdodlar yaratgan barcha narsani johillik bilan vayron qilish vositasi va quroli bo'lib kelgan.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglab, boy tarihimizga egalik qila boshladik. Qadriyatlarimiz tiklandi, mamlakatimizni dunyo tanimoqda va tan olmoqda. Istiqlool tufayli barcha fan sohalarida bo'lganidek, tarix faniga ham e'tibor kuchaydi.

Mazkur tadqiqotga oid adabiyotlar va manbalarni o'rganish, taxlil qilish shuni ko'rsatadiki, Rossiyada 1917-yildagi Burjua fevral-demokratik inqilobi g'alabaga erishganidan so'ng Turkistonda bu voqeani hursandchilik bilan qarshi olishdi, sababi halqning ziyolilar qatlamida ozodlikka chiqish umidlari uyg'ona boshladi, siyosiy jarayonlar avj ola boshladi, halqning ilg'or vakillari – jadidlar bu jarayonlarda halqni uyg'otish, ularning siyosiy faolligini oshirish borasida siyosiy tashkilotlar va jamiyatlar tuzish va ularga birlashish orqali o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish mustaqillikni qo'lga kiritish mumkinligini tushunib yetganlar.

O'zbekistonning 1917-1918 yillardagi siyosiy hayoti tarixiy tajribasi quyidagi hulosalarga kelish imkonini beradi:

- Milliy siyosiy jamiyatlar va tashkilotlar 1917-yil fevral voqealaridan keyin faol tuzilib ish boshladi, mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy

jarayonlardagi ishtirokini ta'minlab, ularning siyosiy huquqlarini himoya qildi;

- Milliy siyosiy tashkilotlarning asosiy maqsadi o'lkada bosqichma-bosqich mustaqil va demokratik davlat qurish edi;
- Milliy jamiyatlarning tuzilishi jarayonida va ularning keyingi faoliyatida tarqqiyparvar ziyolilar Rossiya va Kavkaz musulmonlari bilan yaqin aloqada bo'ldi;
- Turkistonda 1917-yil fevraldan so'ng jamiyatning siyosiylashuvida jo'shqin jarayonlarni boshlab berdi. Yuz minglab mudroq odamlar uyg'onib, siyosiy faoliyatga kirishdilar. Hukumat tuzulmarini qayta qurishga kirishishdi. Hamma joylarda ijtimoiy-siyosiy manfaatlarni ancha erkin ifoda qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Holbuki, bu davrda mahalliy aholi siyosiy hayotda faol ishtirok etibgina qolmay, balki tarixiy voqealarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Milliy ziyolilar o'zlarining siyosiy harakatlari yo'lida katta qadam qo'ydi;
- Turkiston musulmonlari yo'lboshchilarining mafkuraviy kurashlarida milliy masalani hal etish va Rossiya bilan o'zaro davlatchilik munosabatlar istiqboli borasida yakdillik yo'q edi;
- Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va uni boshqarishda davlat hokimiyat organlariga saylovlarda mahalliy aholi bilan yevropalik aholi vakillari ham ishtirok etdi;
- Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi va o'lkada sovet avtonomiyaining o'rnatilishi o'lka halqlarining siyosiy faoliyatini ancha to'xtatib qo'ydi;
- 1917-1918 yillardagi milliy matbuot materiallarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'sha davrlarda Turkistonda keskin siyosiy o'zgarishlar jarayonida milliy taraqqiyparvar ziyolilar ilk bor siyosiy tashkilotlar va jamiyatlar tuzdilar, ularning dasturlarini ishlab chiqdilar

va mana shu jamiyatlar atrofida jipslashib, o'z oldilariga yurt ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashish vazifalarini qo'ydilar. Milliy matbuot materiallari shuni ko'rsatadiki, "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon", "Turk Adami markaziyat firqasi", "Ittifoq" kabi yirik siyoyiy tashkilotlar bilan bir qatorda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon kabi shaxarlarda "Sho'roi Islomiya" tashkilotining sho'balari, "Xavaskoroni maorif", "Musulmon ishchilar jamiyati", "Sartaroshlar jamiyati", "Talabalar jamiyati" kabi milliy siyosiy jamiyat va to'garakalar ham tuzilib ish olib borganlar. Ularning o'z yo'nalishi va maqsadlari bo'lgan. Ammo ziyolilar mustaqil davlat qurish yo'lida mana shu jamiyatlarni iloji boricha birlashtirib, markazlashtirishga harakat qildilar va bunga imkon qadar erishdilar. Masalan, "Sho'roi Islomiya" shunday tashkilot edi.

1917-1918 yillarda milliy mustaqillik uchun harakatlar olib borgan vatandoshlarimiz o'z davlatimiz, ona tilimizga egalik qilish orzusida yashagan millatdoshlarimiz ilk bora o'z qarashlari va mafkuralarini jadidlar harakatidan oziqlantirdi.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimizda qaror topayotgan ko'ppartiyaviylik tizimi hamda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslari asrimiz boshlaridayoq yaratilgan bo'lib, bu asoslar milliy taraqqiyparvarlarimiz qarashlarida o'z aksini topgan edi. XX asrning boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan siyosiy tashkilotlarning nizomlari, dasturlari, qarorlari, maqsadlari to'la-to'kis demokratik talablarga javob beradi. Garchi, jadidlar harakati va partiyalari mustamlaka Turkistondagi og'ir sharoitda faoliyat ko'rsatishlariga qaramay, ular ilg'or mamlakatlardagi kabi ko'ppartiyaviylik tizimi, shuningdek, demokratik tamoyillarning shakllanishi uchun ham nazariy, ham amaliy meros va tajribalar qoldirdiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy

partiyalar faoliyatini tashkil etishda ham bu hususiyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning qadriyatlari tiklanayotgan, boy va mazmundor tarixi to'g'ri yoritilayotgan bugungi kunlarda milliy mustaqillik uchun kurashning yorqin va ayni chog'da, fojeali sahifasi bo'lgan Turkiston Muxtoriyati haqida bor haqiqatni aytish va undan jiddiy saboqlar chiqarish bugungi kunning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari:

1. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T.: “Turkiston”. 1999, 2-fevral.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: “Sharq”, 1998.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - T.: “O'zbekiston”, 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: “O'zbekiston”, 1993.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: “O'zbekiston”, 1997.
6. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda, Toshkent, 1999.
7. Karimov I.A. O'zbek halqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13.-T.: O'zbekiston, 2005.-b. 183, 184, 189.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: “Ma'naviyat”, 2009.
9. Каримов И.А. Дальнейшее углубление демократических реформ и формирование гражданского общества-основной критерий развития нашей страны. -T.: «Узбекистан». 2011.

Maxsus adabiyotlar:

1. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurilish tajribasi. - T.: Ma'naviyat, 2000.
2. Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -T.: Universitet, 2002.
3. Xaydarov M. O'zbekiston sovet davlati boshqaruv tizimi: shakllanishi, bosqichlari va mohiyati. - T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2012.
4. Xolboyev S. Turkiston jadidchiligi - milliy uyg'onish davri tarixi. -N.: Namangan 2012.

5. Alimova D. Tarix shoxidligi va saboqlari. -T.: Sharq, 2001.
6. Jo'rayev N. Karimov Sh. O'zbekiston tarixi 2-tom. -T.: Sharq, 2011.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakchiligi davrida. -T.: Sharq, 2000.
8. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutahasis fakultetlari talabalari uchun darsliklar). R.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. -T.: Yangi asr avlodi. 2003.
9. Alimova D. Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari. -T.: O'zbekiston, 2000.
10. Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T., 1998.
11. Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1917-1970). -T.: Akademiya, 2000.
12. Ziyoyev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. -T.: Sharq, 2001.
13. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). T.: Ma'naviyat, 2002.
14. Munavvarqori Abdurashidxonov hotiralaridan. Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev. -T.: Sharq, 2001.
15. Axmedov S. Rajabov Q. Jadidchilik O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T.: 2002.
16. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. (Mustabid tuzumga qarshi 1916-yil va 1918-1924 yillardagi halq kurashlari tarixshunosligi). -T.: 2000.
17. Ermetov A. Turkistonda nazorat organlari faoliyati. (Ishchi-dehqon militsiyasi va Ishchi-dehqon inspeksiyasi 1917-1924 yillarda). -T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
18. Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. (1900-1924 yillarda). -T.: Akademnashr, 2011.

- 19.Xolboyev S. Jadidlarning mustamlaka sovet tuzumi davridagi faoliyati va taqdiri (1917-1930 yillar). B.201,216. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam 1. –T.: Universitet, 1999.
- 20.G'ulomov I. XX asr boshlarida Turkistonda siyosiy tashkilotlar va ularning milliy huquq va erkinliklar uchun kurashlari tarixi haqida ba'zi mulohazalar. B. 155,158. O'zbekistonda tinchlik-osoyishtalik, xavfsizlik va millatlararo hajihatlikni mustahkamlash mamlakat taraqqiyotining poydevori. (Iqtidorli talabalar an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: Universitet, 2013.
- 21.Jaynarov O. Turkistondagi siyosiy jarayonlarning "Ulug' Turkiston" gazetasida yoritilishiga doir ba'zi mulohazalar (1917-1918 yillar). B.33,36. Tarixiy manbashunoslik muammolari. (Talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari). T.: Original Print, 2013.
- 22.ToshDU ilm va ma'rifat maskani. Universitet, 1995.
- 23.Rajabov Q. Buxoro Respublikasi: monarxiyadan demokratiya sari dastlabki qadamlar (1920-1924 yillar). B.149. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to'plam 2. –T.: Sharq, 1999.
- 24.Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. -Т.: Шарк, 2000.
- 25.Mingnorov A.T. Turkistonda milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida. Dis-6039. T.: 2000.
- 26.Turkistonda avtanomiya oluv haqida / Ulug' Turkiston. 1917-yil 5-may.
- 27."Ulamo" sadrning qarorlari / Ulug' Turkiston 1917-yil 30-sentabr.
- 28.Katta miting / Ulug' turkiston. 1917-yil 10-dekabr.
- 29.Musulmon va ishchi dehqonlar sezdi / Ulug' Turkiston. 1918-yil 4-yanvar.
- 30.Abdurauf Fitrat Muxtoriyat / Xurriyat 1917-yil 5-dekabr.
- 31.Bakirov M. Turkiston Muxtoriyatining barpo bo'lishida kuch kerak. / Ulug' Turkiston. 1917-yil 24-dekabr.

32. Musulmon va ishchi dexqonlar sezdi. / Ulug' Turkiston. 1918-yil 21-yanvar.
33. G'ulomov I. Bolsheviklar hukmronligining dastlabki davrida Turkiston ASSR dagi siyosiy ahvol. B.177,179. Yoshlar vazirigi zamon. (Talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari). –T.: Universitet. 2012.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

1. Хайдаров М. Централизаторская политика Советской власти в Туркестане и ее последствия (1917-1924гг.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. -Т., 1998.
2. Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т., 1998.
3. Ражабов Қ. Истиклолчилик ҳаракати в Ферганской долине: сущность и основные этапы развития (1918-1924). Автореф.дисс.канд.ист.наук.-Т.,1995; Ўша муаллиф. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924гг.). Автореф.дисс.докт.ист.наук.-Т.,2005;
4. Агзамходжаев С. Туркистон мухторияти: борьба за свободу и независимость (1917-1918 гг.). Автореф.дисс.докт.ист.наук.-Т.,1996;
5. Ерметов А. Туркистонда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918-1924 йиллар). Автореф.дисс.канд.ист.наук.Т.,2006.